

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLİY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

«TARIX VA HUQUQ» FAKULTETI

HUQUQSHUNOSLIK KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: YOLG'ON GUVOHLIKNING KRIMINOLOGIK JIHATLARI

Bajargan:

Tarix va huquq fakulteti
IV kurs talabasi Agitaev B.

Ilmiy rahbar:

yuridik fanlar nomzodi
Fayzullaeva T.X.

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada
dastlabki himoyadan o'tdi
(__ sonli bayonnomasi __ ____ 2015 yil)
Kafedra mudiri v.v.b. ____ I.Matjanov

Tarix va huquq fakulteti dekani
Yu.f.n. dotsent ____ A.T.Allamuratov

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I-BOB. YOLG'ON GUVOHLIKNING JINOYAT-HUQUQIY TAVSIFI.....	7
1.1. Yolg'on guvohlik berish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi va umumiy tavsifi.....	7
1.2. Yolg'on guvohlikning obekti.....	14
1.3. Yolg'on guvohlikning obektiv tomoni.....	20
1.4. Yolg'on guvohlikning subekti.....	32
1.5. Yolg'on guvohlikning subektiv tomoni.....	43
I - bob bo'yicha xulosa.....	49
II-BOB. YOLG'ON GUVOHLIKNING KRIMINOLOGIK JIHATLARI.....	51
2.1. Yolg'on guvohlik berishning kriminologik tavsifi.....	51
2.2. Yolg'on guvohlik berishning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar.....	54
2.3. Yolg'on guvohlik berishning oldini olish choralari.....	58
2.4. Yolg'on guvohlik berishni oldini olishning jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual choralari.....	63
II - bob bo'yicha xulosa.....	70
XULOSA.....	71
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	74

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Sud-huquq tizimida olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri fuqarolarda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jazolovchi organ emas, balki, shaxs huquq va manfaatlarini himoya qiladigan organlar sifatida qarashni shakllantirishdir. «Yana bir muhim masala sud va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining masuliyatini kuchaytirish haqida alohida to'xtalishni o'rinli, deb bilaman. Takror-takror aytishga to'g'ri keladi, bu sohada xizmat qiladigan odamlar o'zining professional va fuqarolik burchini, o'z vazifasini qanchalik halol va sidqidildan ijro etishi, hech mubolag'asiz, butun hokimiyatning obro'si va kishilarimizning adolatga ishonchi qay darajada bo'lishini belgilaydi»¹ degan fikrlari yurtboshimizning ushbu masalaga davlat miqiyosida etibor qaratilayotganligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda sud-huquq sohasini demokratik asosda yanada isloh etish, mustahkamlash va erkinlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlarda parlamentning alohida o'rin tutganini takidlash zarur.

Ana shu davrda parlament tomonidan qabul qilingan 30 ga yaqin qonunchilik hujjatlari qonun ustuvorligini taminlash, sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishda huquqni muhofaza qilish tizimining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'ldi².

Shuningdek, Prezidentimiz I.A.Karimov «huquqiy davlatning quroli ham, himoyasi ham, ko'zi ham, so'zi ham qonundir. Ming afsuski, bizda qonunlarni mensimaslikka, ularni buzishga o'rganib qoling. Qonunni buzishga hech kimning haqqi yo'q. Chunki qonun – xalqning xohish-irodasi! Uni buzgan, mensimagan odam xalqning yuziga oyoq qo'ygan kishidir. Biz qonunni hurmat qilish, unga bo'ysinish, rioya qilish yo'lidan borsak, istiqbolimiz porloq bo'ladi. Ana shunga erishish uchun Prezident qonunlarning eng asosiy posboni,

¹ Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Т.: Ўзбекистон. – 2005. – 109 б.

² Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. Ҳуқуқ ва бурч. – 2015. - №1. – Б. 2-9.

himoyachisi bo'lishi kerak»¹, deb takidlagan edi.

Odil sudlovning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi faqat mazkur organlar tomonidan huquq normalariga rioya etilishiga, balki guvohlar, shuningdek, odil sudlov faoliyatiga jalb etilgan boshqa shaxslarning fuqarolik burchini beg'araz va xolis bajarishiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi samarali kurash olib borishda guvoh ko'rsatuvlarining ahamiyati beqiyos, zero hozirgi zamon jinoyat protsessida guvoh ko'rsatuvlari haqqoniyligini taminlash jinoyat huquqiy taqiqlarni o'rnatish orqali maxsus muhofaza ostiga olingan, mazkur huquqiy muhofaza mexanizmi barcha davrda, xususan, mamlakatimizning bugungi va kelajakdagi jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Odil sudlovga qarshi jinoyatlar-surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, shuningdek, jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari tomonidan surishtiruv, dastlabki tergov hamda sud ish yurituv tartibiga oid qonunlarni buzish yo'li bilan odil sudlov va shaxs manfaatlariga zarar etkazadigan, shu bilan sudga jinoyat, fuqarolik yoki xo'jalik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish vazifalariga to'sqinlik qiluvchi qasddan sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlardan hisoblanadi.

Mazkur turdagi jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi shundaki, yolg'on guvohlik fuqarolik, jinoyat va xo'jalik ishlari bo'yicha haqiqatni aniqlashni qiyinlashtiradi, odil sudlov organlarini chalg'itadi va qonuniy, adolatli va asosli qaror chiqarishga to'sqinlik qiladi. Mazkur holatlarning mavjudligi sud va tergov organlari amaliyotida yolg'on guvohlik berishga oid jinoyat-huquqiy normalarni qo'llashda jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi, natijada mazkur qilmishni kvalifikatsiya qilishda xatolarga olib keladi. Shu bilan birga, amaliyotda ushbu jinoyat tarkibi alomatlari bo'lmagani holda, bazan guvohni yolg'on ko'rsatuv berganlik, ekspertning

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон дунё харитасида ўзига муносиб жой олди. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон. НМИУ. – 2011. – 435 б.; Каримов И.А. «Инсон манфаати, ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, ҳаётимизнинг янада эркин ва обод бўлишига эришиш – бизнинг бош мақсадимиздир». Президент И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 20 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Тошкент. – 2013. – 128 б.

noto'g'ri xulosa berganligi yoki noto'g'ri tarjima qilganlik uchun asossiz ravishda javobgarlikka jalb qilish hollari ham mavjud. Shunday ekan, guvohlik berish bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qarag'anda, ushbu bitiruv-malakaviy ishi hozirgi kunning dolzarb masalalaridan bo'lgan sud-huquq islohotlarini amalga oshirish jarayonida odil sudlov manfaatlarini himoya qilishning jinoyat huquqiy va kriminologik masalalariga bag'ishlangan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yolg'on guvohlik berishning ayrim jihatlari G'.Abdumajidov¹, Yu.Karaketov, M.X.Rustambaev, M.Usmonaliev, Z.H.G'ulomov, Q.R.Abdurasulova² va shuningdek, Rossiya va boshqa mamlakatlarda I.S.Vlasov, S.S.Kuzmina³, I.M.Tyajkova, N.A.Sartaeva kabi olimlarning asarlarida tadqiq qilingan.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin amaldagi jinoyat qonuni bo'yicha odil sudlovga qarshi jinoyatlarning jinoyat-huquqiy tavsifi Z.X.Gulyamov tomonidan doktorlik dissertatsiyasi va A.Toshpo'latov tomonidan yolg'on guvohlikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari nomzodlik dissertatsiyasi doirasida tadqiq qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi yolg'on guvohlik uchun jinoiy javobgarlik muammolarini o'rganish, unga jinoyat-huquqiy va kriminologik tasir ko'rsatishning ilmiy asoslarini o'rganishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun qo'yidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- yolg'on guvohlik berishning obektiv va subektiv belgilarini tahlil qilish;
- yolg'on guvohlik berishning kriminologik jihatlarini o'rganish;
- mazkur jinoyatlarni vujudga keltiruvchi ijtimoiy omillarni nazariy-huquqiy jihatdan asoslab berish;

¹ Абдумажидов Г. Право на судебную защиту интересов. Имплементация норм международного права в законодательстве Республики Узбекистан. – Т.: УМЭД. – 1999. – С.15-18.

² Абдурасулова Қ.Р. Жиноятнинг махсус субъекти. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮИ. – 2005. – 124 б.

³ Кузьмина С.С. Лжесвидетельство: уголовно-правовые и уголовно-процессуальные проблемы. – СПб., - 1995. – 64 с.

- yolg'on guvohlik berishning oldini olish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining obekti yolg'on guvohlik berishning kriminologik jihatlarini tahlil qilishga oid munosabatlar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmetini yolg'on guvohlik berishga qarshi kurashni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, sud amaliyoti va ushbu muammoga bag'ishlangan ilmiy asarlar tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishini yozishda tizimli, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy va statistik kabi **metodlardan** foydalanildi.

Natijalarning joriy qilinishi. Ishning natijalari, nazariy xulosalardan oliy o'quv yurtlarida huquqshunoslik ixtisosligi talabalarini kriminologiya fanini o'qitishda, sud-tergov xodimlarining malakasini oshirish tizimida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Ish kirish, to'qqiz paragrafni o'z ichiga olgan ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning hajmi 77 bet.

I-BOB. YOLG'ON GUVOHLIKNING JINOYAT-HUQUQIY TAVSIFI.

1.1. Yolg'on guvohlik berish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi va umumiy tavsifi

Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi samarali kurash olib borishda guvoh ko'rsatuvlarining ahamiyati katta. Chunki, hozirgi zamon jinoyat-protsessida guvohlarning ko'rsatuvlari isbotlashning o'ta muhim vositasi bo'lib hisoblanadi¹. Yolg'on guvohlik berish esa, keng tarqalgan, o'sishga moyil, ijtimoiy xavfli hamda odil sudlovga qarshi latent jinoyatlardan bo'lib hisoblanadi. Jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha obektiv haqiqatni aniqlashda guvoh va jabrlanuvchi ko'rsatuvlari juda muhim ahamiyatga ega. Odil sudlovga qarshi jinoyatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida aloxida bobga ajratilishining sababi ham, odil sudlov organlari faoliyatini davlat hamda jamiyat uchun o'ta zarurligi hamda odil sudlovni jinoiy tajovuzlardan alohida muhofaza etish zaruriyati bilan izoxlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XVI bobi "Odil sudlovga qarshi jinoyatlar", deb nomlanib, jinoyat huquqi nazariyasida ushbu jinoyatlar odil sudlov organlari normal faoliyatiga daxl etuvchi jinoyatlar sifatida belgilangan. Odil sudlov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, faqatgina sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Yuridik adabiyotlarda odil sudlovga qarshi jinoyatlar deyilganda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud, shuningdek, boshqa fuqarolar tomonidan surishtiruv, dastlabki tergov, sud ish yurituv va jazoni ijro etishni tartibga soluvchi qonunlarni buzish yo'li bilan odil sudlov va shaxs manfaatlariga zarar etkazadigan, hamda shu bilan sudga jinoyat yoki fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish vazifalariga to'sqinlik qiluvchi kdsddan sodir etiladigan harakatlar tushuniladi, deb tarif beriladi².

Odil sudlovga qarshi jinoyatlar-surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya, shuningdek, jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari tomonidan surishtiruv, dastlabki tergov hamda sud ish yurituv tartibiga oid qonunlarni buzish yo'li bilan

¹ Григорьев Ф.Г. Право свидетеля и других участников уголовного судопроизводства на обеспечение их безопасности. Вестник Московского университета. Серия 11. Право. - 2006. - № 3. - С. 91.

² Гулямов З.Х. Преступления против правосудия // Под ред. и с предисловием д.ю.н., проф. У.Таджихонов. - Ташкент. - 1997. - С.40.

odil sudlov va shaxs manfaatlariga zarar etkazadigan, shu bilan sudga jinoyat, fuqarolik yoki xo'jalik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish vazifalariga to'sqinlik qiluvchi qasddan sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlardan hisoblanadi.

Malumki, jinoyat qonunida jamiyat uchun jiddiy zarar etkazuvchi, inson huquq va erkinliklar hamda qonuniy manfaatlarini qo'pol tarzda buzuvchi jinoiy qilmishlar uchun javobgarlik hamda jazo choralari belgilangan. Odil sudlov manfaatlariga qarshi qaratilgan jinoyatlar ham shular jumlasiga mansubdir. Jinoiy tajovuzlarning boshqa guruhlaridan farqli ravishda, odil sudlovga qarshi jinoyatlarni ularning subektlariga qarab tasniflashimiz mumkin. Xususan, yuridik adabiyotlarda odil sudlovga qarshi jinoyatlarni uch guruhga ajratilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin:

1. Odil sudlov funktsiyasini amalga oshirish masuliyati yuklangan shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar.

2. Protsessual majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar

3. Odil sudlovni amalga oshirish majburiyati fuqarolik burchi bo'lgan yoki qonunan zimmasiga yuklatilgan shaxslar tomonidan amalga oshirilgan jinoyatlar.

Z. X. Gulyamov esa odil sudlovga qarshi jinoyatlarni to'rt guruhga bo'lib tadqiq etadi:

- 1) Tergov va sud hokimiyati organlari obro'yi va faoliyatiga tajovuz qiluvchi odil sudlovga qarshi jinoyatlar. Ular sirasiga tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish (JK 236-moddasi), sud hujjatini bajarmaslik (JK 232-moddasi) moddalari kiradi;

- 2) Surishtiruv olib borayotgan shaxslar, tergovchi, prokuror yoki sudyalardan sodir etiladigan odil sudlovga qarshi jinoyatlar. Ularga quyidagilar kiradi: aybsiz kishini javobgarlikka tortish (JK 230-moddasi), adolatsiz hukm, hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror chiqarish (JK 231-moddasi), qonunga xilof ravishda ushlab turish yoki hibsga olish (JK 234-moddasi). qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala

hamda jazo turlarini qo'llash (JK 235-moddasi);

3) odil sudlovni amalga oshirishga jalb etilgan shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar. Ular jumlasiga band solipgap mulkii qonunga xilof ravishda tasarruf etish (JK 233-moddasi), yolg'on xabar berish (JK 237-moddasi), yolg'on guvohlik berish (JK 238-moddasi), surishtiruv yoki dastlabki tergov malumotlarini oshkor qilish (JK 239-moddasi) kiradi;

4) Boshqa shaxslar tomonidan sodir etiladigan odil sudlovga qarshi jinoyatlar. Mazkur guruq quyidagi jinoyatlarni qamrab oladi: jinoyat haqida xabar bermaslik (JK 241-moddasi, 1-qismi), jinoyatni yashirish (JK 241-moddasi, 2-qismi)¹.

Keng tarqalgan odil sudlovga qarshi jinoyatlardan biri bu guvoh va jabrlanuvchilarning yolg'on guvohlik berishi bo'lib, ular uchun jinoiy javobgarlik O'zbekiston Rsspublikasi Jinoyat kodeksining 238-moddasida belgilangan. Yuqoridagilarga asosan takiddash lozimki, yolg'on guvohlik berish jinoyatiga qarshi kurash muhim ahamiyatga ega, chunki ushbu qilmish nafaqat odil sudlov manfaatlariga va jinoyatchilikka qarshi kurashga salbiy tasir ko'rsatadi, balki sudlar va odil sudlovga ko'maklashuvchi boshqa organlarning obro'yiga ham putur etkazadi.

Yolg'on guvohlik berish borgan sari keng tarqalib borayotganligi bilan ham ijtimoiy xavflidir. U tergovni murakkablashtiradi, haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qiladi, surishtiruv va tergov muddatlarini cho'zadi, aybdorni javobgarlikdan kutulishiga ko'maklashadi, shuningdek, aybsiz kishini javobgarlikka tortilishiga olib kelishi ham mumkin. Yolg'on guvohlik berish jazodan qutulishga bo'lgan ishonchini kuchaytirib javobgarlikning muqarrarligi printsipini buzadi. Yolg'on guvohlik beruvchilar sud va huquqni muxofaza qiluvchi organlarning obro'yini tushiradi, fuqarolar ko'z o'ngida qonunga hurmatsizlikni ochiq-oydin namoyon etadi².

¹ Гулямов З.Х. Преступления против правосудия // Под.ред. и с предисловием д.ю.к, проф. У.Таджихонов, - Ташкент. - 1997. - С. 11-40.

² Горелик А.С., Лобанова В.Л. Преступления против правосудия.- СПб. – 2005. – С. 203.

Ushbu jinoyat jinoyat ishini to'la, har tomonlama va obektiv tergov qilinishi va odil sudlov amalga oshirilishiga tusqinlik qilibgina qolmay, qonuniy hukm yoki fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha qonuniy hal qiluv qarori chiqarilishiga xam to'sqinlik qiladi¹.

Ushbu jinoyatlarning ijtimoiy xavfi yuqoriligiga hamda jamiyatda keng tarqalib borayotganligiga qaramay, ushbu jinoyatlarga qarshi kurash etarlicha faol olib borilmayapti. Shu asnoda yuridik adabiyotlarda ham, yolg'on guvohlik berishning kriminologik masalalari, ushbu jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik masalalari ko'rib chiqilgan maxsus tadqiqotlar kam uchraydi. Mazkur tadqiqot bu borada mavjud bo'shlikni to'ldirishga qaratilgan. Sud-tergov amaliyotida ham yolg'on guvohdlik beruvchilarning shaxsi, ushbu jinoyat latentlik darajasi, uning oldini olish choralari mexanizmiga oid malumotlar etishmaydi.

Yolg'on guvohlik berish ijtimoiy xavfli qilmish sifatida JKda mustahkamlanganligi uning jamiyat, aniqrog'i, hokimiyatlar taqsimlanishining mustaqil bo'g'ini, davlat hokimiyatining aloxida tarmog'i, fuqarolar himoyachisi bo'lmish - odil sudlov instituti manfaatlariga jiddiy zarar etkazishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Yolg'on guvohlik berishning ijtimoiy xavfliligi shu bilan belgilanadiki, bu jinoyat odil sudlov obro'siga putur etkazadi, sudlar obektiv haqiqatning tagiga etishiga va ishlarni odilona hal qilishiga monelik qiladi. Yolg'on guvohlik berish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi haqida so'z borar ekan, prof. M.H.Rustamboev shunday yozadi: «Yolg'on guvohlik berish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi shunda namoyon bo'ladiki, uning sodir etilishi dastlabki tergov va sud organlarini adashishiga sabab bo'ladi hamda haqiqiy ish holatlarini aniqlanishi uchun ortiqcha vaqt va sarf-xarajatlar, shuningdek ortiqcha kuch sarflanishiga olib keladi»².

Yolg'on guvohlik berish jinoyatining ijtimoiy xavfliligi yana shunda ham namoyon bo'ladiki, ushbu qilmish natijasida nafaqat, odil sudlovni amalga

¹ Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шархлар. Махсус қисм. Т.: Илм-зиё, 2006. – Б. 667-668.

² Рустамбоев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Особенная часть. - Т.: "O'qituvchi". 2004. - С.758

oshiruvchi (sud organlari) hamda unga ko'maklashuvchi (surishtiruv, tergov, prokuratura organlari) organlar faoliyatiga putur etkaziladi, balki, bu qilmishni sodir etishga majburlashda, guvoh, ekspert, tarjimonning yohud ularning yaqin qarindoshlarining sog'lig'iga ham zarar etishi mumkin.

Yolg'on guvohlik masalasini tadqiq qilishda guvohlik immunitetiga alohida etibor qaratish lozim. Guvohlik immunitegi (lotincha immunitas-baror narsadan ozod qilish) - qonunda ko'rsatilgan shaxslarni o'ziga va yaqin qarindoshlariga nisbatan guvohlik berish majburiyatidar ozod qiladi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin MDHga azo davlatlar orasida birinchi bo'lib, respublikamiz Jinoyat va Jinoyat protsessual kodekslarida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki ularning yaqin qarindoshlari guvohlik bermaganliklari uchun javobgarlikka tortilmasliklarining belgilanishi jinoyat protsessida inson huquq va erkinliklarini muhofaza qilishda juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Yolg'on guvohlik aloxida jinoyat ishi bo'yicha tergov yoki sud muhokamasi jarayonida isbotlash ahamiyatiga ega bo'lgan har qanday faktik xolatlarga taalluqli bo'lishi mumkin. Guvoh fuqarolik yohud xo'jalik ishlari bo'yicha ham yolg'on ko'rsatuv berishi mumkin¹.

Yolg'on guvohlik berish, odil sudlov manfaatlariga daxl etar ekan, sud muxokamasining cho'zilishiga, qo'shimcha guvohlar chaqirilishiga, qayta ekspertiza tayinlanishiga, jinoyat ishining qo'shimcha tergovga qaytarilishiga, aybdorning oqlanishiga, aybsiz shaxsning jazoga hukm qilinishiga hamda ishni boshqacha tarzda noxolisona hal etilishiga olib keladi. Bu kabi holatlar ushbu jinoiy qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini ifodalaydi.

Olib borilgan tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, odatda yolg'on guvohlik beruvchi shaxslar g'ayriijtimoiy harakatlarga moyil bo'lgan, asabiy, tashvishga va xavotirga tushgan, o'z boshidan ruhiy zo'riqishni kechirayotgan bo'ladi:

— yolg'on guvohlik berishning asosiy determinanti protsess ishtirokchilari o'rtasidagi qarindoshlik yoki boshqa yaqin munosabatlar, ish

¹ Корбеев А., Кулешов Ю., Уголовно-правовая защита независимости правосудия. М.: Уголовное право. – 2005. - № 5. - С 4

yakunidan manfaatdorlik, manfaatdor shaxs tomonidan o'ziga yoki qarindoshlariga kuch ishlatilishi ehtimolidan qo'rkish kabilar bo'ladi;

— yolg'on guvohlik berish jinoyatining oldini olishda, aholi o'rtasida tarbiyaviy, o'quv xarakterdagi umumiy ijtimoiy choralarni qo'llash, guvohlik majburiyatini xolisona bajarganlik uchun moddiy va manaviy rag'batlantirish kabi tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega;

— tergov va sud muhokamasida guvohlarni so'roq qilish mobaynida so'roq qilishning samarali psixologik uslublaridan, shuningdek, zamonaviy texnik vositalardan foydalanish ham foydadan xoli bo'lmaydi;

— guvoh va jabrlanuvchilarni himoya qilish davlat tizimini yaratish zarur. Bu guvohlarning ko'rsatuv berishida manfaatdor shaxslar tomonidan tazyiq o'tkazilishining oldini olish vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Yolg'on guvohlik berishning umumiy tavsifi haqida fikr yuritar ekanmiz, takidlab o'tishimiz joizki, ushbu jinoyat bir qator xususiyatlari bilan xarakterlanadi, yani ushbu qilmish:

— odil sudlovning amalga oshirilishiga to'sqinlik qiladi;

— jinoiy harakat shaklida sodir etilishi mumkin;

— qasddan sodir etiladi;

— moddiy, manaviy yoki jismoniy zarar etkazadi;

— formal tarkibli jinoyat hisoblanadi;

— qonuniylik, odillik hamda ayb uchun javobgarlik printsiplari qo'pol tarzda buziladi;

— huquqni muxofaza qiluvchi organlar, ayniqsa sud organlari obro'yining pasayishiga sabab bo'ladi.

Yolg'on ko'rsatuv berish - bu yolg'onning ko'rinishlaridan biri bo'lib, maxsus subekt (guvoh, jabrlanuvchi) tomonidan ish holatlarini aniqlash jarayonida hamda qonunda belgilangan protsessual tartibda qayd etish mobaynida amalga oshiriladi. Shu sababdan xam yolg'on ko'rsatuvlar ruhiy xususiyati yolg'onning

xususiyatidan kelib chiqadi¹.

Yolg'on ko'rsatuvlar mazmunini yolg'on tashkil etadi. Yolg'on deyilganda, subektning ongidagi obektiv haqiqatga zid bo'lgan tushunchani tasdiqlashi, yohud fikr bildirishi, yani ongli ravishda xato malumot berish tushuniladi². Biroq har qanday yolg'on ham yolg'on guvohlik berish jinoyati tarkibini hosil qilmaydi. Faqatgina alohida ish bo'yicha ahamiyatga ega bo'lgan holatlar yuzasidan sud-tergov organlariga aytilgan yolg'on, yani isbotlanishi lozim bo'lgan xolatlarga hamda qonunda dalil sifatida foydalanish taqiqlanmagan faktlarga taalluqli bo'lgan yolg'ongina ushbu jinoyat tarkibini hosil qiladi.

Yolg'on inson xayotining ajralmas qismidan biri, turli vaziyatlarda namoyon bo'lib, turlicha talkin qilinadi. Yolg'on xudbinona motivlar asosida ishlatilishi, boshqa shaxslar hisobiga boylik orttirish kabi g'arazli maqsadlarni kuzlashi mumkii. Shuningdek, yolg'on oliyjanob maqsadlarda ham ishlatilishi mumkin (masalan, shifokorning og'ir kasalga yolg'on so'zlashi), bunda u jamoatchilik tomonidan oqlanadi. Aytish joizki, inson hayotini yolg'onsiz tasavvur etish mumkin emas, sababi inson bazan shunday vaziyatga tushadiki, bunday holatda haqiqatni oshkor etish mutlaqo mantikqa zid bo'ladi. Ruhiy sog'lom, aqli raso, es-hushi joyida bo'lgan insonning yolg'on so'zlashi, odatda, real motivlar bilan belgilanadi hamda aniq maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu sababdan ham doimo haqiqatni aytishning iloji bo'lmaydi. Mutlako haqiqatgo'y insonlar yo'q ekan, demak yolg'onchi va haqiqatto'y insonlar orasidagi farq ham shartli xususiyat kasb etadi. Yolg'on bazan aybsiz shaxsning himoya reaksiyasi ham bo'lishi mumkin. Noxaq ayblanishdan va jazolanishdan xavotirga tushib, gumonlanuvchi bazan, haqiqatda bo'lgan faktlarni rad etib, yolg'on so'zlashi hamda ushbu yolg'ondan gumonlardan himoyalanish vositasi sifatida foydalanishi mumkin.

Yolg'ondan farqli ravishda jim turish - bu yarim chin bo'lib, ishonchli

¹Бобранов И. Проблемы квалификации принуждения к даче показаний // Уголовное право. 2005. - № 2. - С 8-10.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.1. М. Русский язык. 1991. - С. 256

faktlardan xato xulosa chiqarilishiga sabab bo'ladi: shaxs, bazi haqiqiy malumotlar haqida axborot berib, qasddan boshqa muhim bo'lgan faktlarni aytmaydi. Jim turish yolg'on guvohlik berish sifatida baholanishi mumkin emas. Qonuniy va adolatli hukm chiqarilishiga tasir qilishi mumkin bo'lgan, surishtiruv, tergov va sud muxokamasi jarayonida berilgan yolg'on ko'rsatuvlarga jinoiy deb topilishi mumkin¹.

1.2. Yolg'on guvohlikning obekti.

Malumki odil sudlov deganda faqat sudning konstitutsiyaviy, fuqarolik, mamuriy va jinoyat ishlarini yuritish bo'yicha faoliyati tushuniladi. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXII bobi (O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati)dan, O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi 1993 yil 2 sentyabr Qonuni va 2000 yil 14 dekabrda yangi taxrirdagi Qonundan kelib chiqadi. Chunonchi, mazkur Qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sudlar tomonidan amalga oshiriladi.

Ammo odil sudlovga qarshi jinoyatlar maxsus obektining mazmuni yuqorida berilgan odil sudlov tushunchasidan ancha kengdir. Qonun chiqaruvchi bu erda mazkur jinoyat maxsus obektiga nafaqat sud faoliyatini, balki tergov, surishtiruv, prokuratura organlari, sud hukmi va qarorlarini ijro etuvchi organlar faoliyatini ham kiritgan.

Sudning hamda odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi organlarning asosiy maqsadlari (vazifalari) "O'zbekiston Respublikasining sudlar to'g'risida"gi Qonunida belgilab qo'yilgan. Unga muvofiq, odil sudlov ijtimoiy tuzumni, uning siesiy va iqtisodiy tizimlarini, fuqarolarning siyosiy, mexnat, turar joy va boshqa shaxsiy va mulkiy huquqlarini, davlat korxonalari, muassasalari va jamoat tashkilotlarining huquqlari va qonun bilan qo'riqlanuvchi manfaatlarini qo'riqlashi shart. Jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida faoliyat olib boruvchi

¹ Новиков С.А. Наказание за лжисвидетельство: дискуссионные вопросы// Российский следователь. - № 5 - 2006. - С 10-12.

organlarning umumiy vazifalari O'zbekiston Respublikasi JPK 2-moddasida belgilangan. Bu vazifalar jinoyatlari tez va to'la ochish, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to'g'ri tadbiq etilishini taminlashdan iborat.

Shunday qilib, prokuratura, tergov, surishtiruv organlari hamda davlatning majburlor choralarini ijro etuvchi organlar o'z faoliyati bilan odil sudlovning maqsadlariga erishishga, sudning odil sudlovni muvaffaqiyatli amalga oshirishiga ko'maklashadilar. Shu bois qonun chiqaruvchi mazkur organlarning odil sudlovga ko'maklashishi bilan bog'liq faoliyatiga tajovuz etuvchi jinoyatlarni odil sudlovga qarshi jinoyatlar qatoriga kiritgandir.

Ayni vaqtda shuni ham qayd etib o'tish kerakki, yuqorida zikr etilgan organlarning har qanday faoliyati ham odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashish hisoblanmaydi. Chunonchi, ichki ishlar organlarining faoliyati: 1) mamuriy; 2) odil sudlovni taminlash faoliyatidan tarkib topadi¹. Jamoat tartibini saqlash pasport-viza rejimini taminlash birinchi faoliyat turiga, militsiya organlari tomonidan amalga oshiriladigan surishtiruv va tezkor-qidiruv faoliyati ikkinchi faoliyat turiga misol bo'ladi. Shu bois ichki ishlar organlarining mamuriy faoliyatiga qilingan jinoiy tajovuzlarning obekti boshqa hisoblanadi.

Biz tadqiq etayotgan jinoyatning maxsus obekti - odi sudlov manfaatlari, sud va boshqa organlarning ijtimoiy munosabatlarni, fuqarolarning huquq va erkinliklarin muhofaza qilishga qaratilgan faoliyati, deb tariflash mumkin. Bu faoliyat jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual va jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari bilan qat'iy belgilangan va tartibga solingan. Yuqorida zikr etilgan maxsus obekt bir-biriga o'xshash, lekin bir xil bo'lmagan ijtimoiy munosabatlar guruhini birlashtiradi. Mazkur munosabatlarning yaqinligi shunda namoyon bo'ladiki, turli organlar faoliyatini yagona umumiy manfaat: bunday huquqbuzarliklarga qarshi kurash va ularning sabablarini bartaraf qilish, ijtimoiy

¹ Горелик А.О., Лобанова В.Л. Преступления против правосудия. СПб, 2005. - С. 67.

munosabatlarni qo'riqlash, konstitutsiyaviy vazifalarni bajarishga qaratilgandir.

Yuqoridagilar odil sudlovning ham asosiy bosh manfaatidir. Mazkur umumiy manfaat negizida har bir davlat organi uchun alohida manfaatlar yuzaga keladi va shakllanadi. Ular odil sudlov vazifalarini bajaruvchi organlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini va alohida jihatlarini belgilab beradi¹.

Yuqorida zikr etilgan holatlar bila turib yolg'on ko'rsatuv berishning bevosita obekti odil sudlovga qarshi jinoyatlarning maxsus obekti bilan mos kelmaydi, degan xulosa chiqarish imkonini beradi. Adabiyotlarda keng tarqalgan yolg'on guvohlik berishning bevosita obektini maxsus obekt bilan bir xil, deb qarash amaldagi holatni aks ettirmaydi. Zero, bila turib yolg'on ko'rsatuv berish odil sudlov manfaatlarining faqat bir qismiga daxl etadi². Shunday ekan ko'rib chiqilayoggan maxsus obektidan qaysi manfaatlarni ajratish mumkin?

birinchidan, bu jinoyat, fuqarolik va boshqa ishlarni qonuniy, xolisona va odilona ko'rib chiqish hamda hal qilish bilan bog'liq manfaatlar (bu manfaatlarga O'zR JK 231-, 236-, 237-, 238- moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar tajovuz etadi);

ikkinchidan, bu O'zR JK 230-, 234-, 235-, 239- moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar tajovuz etuvchi manfaatlar;

uchinchidan, bu O'zR JK 241 - moddasida nazarda tutilgan jinoyat bo'lib, ularni tez va o'z vaqtida topish manfaatlari;

to'rtinchidan, bu O'zR JK 240-moddasida javobgarlik belgilangan qilmish uchun davlatning majburlov choralarini amalga oshirish manfaatlarini farqlash mumkin.

Binobarin, tahlil qilinayoggan modda (JK 238-m) dispozitsiyasidan sud ishlarni to'g'ri ko'rib chiqish va hal qilish manfaatlari hamda jinoyat ishlarini

¹ Умархонов А.Ш. Одил судловга қўмаклашувчи шахслар хавфсизлигини таъминлашнинг ҳуқуқий чоралари Ўқув қўлланма.-Т.: ИИВ Академияси. 2005. - Б. 12

² Айдаров Т. Ёлғон хабар бериш ва ёлғон гувоҳлик бериш // Хаёт ва қонун. 2005. - №1. – Б.58-60; Брусницын.Л. Как обезопасить лиц, содействующих уголовному правосудию // Российская юстиция. 1996 - №9 – С.47-50; Лазовицкая Г.П. Правовые и криминологические аспекты борьбы с преступлениями, посягающими на участников правосудия // Российский следователь. 2006. - №3. - С 30-33; Новиков С.А. Наказание за лжисвидетельство: дискуссионные вопросы // Российский следователь. 2006. - № 5. – С.10-12.

qonuniy va obektiv tergov qilish manfaatlari yolg'on guvohlik berishning bevosita obektidir degan xulosa kelib chiqadi. Ko'rib turganimizdek, odil sudlov manfaatlarining bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan ikki guruhi mazkur jinoyatning obekti hisoblanadi. Bila turib yolg'on ko'rsatuv berish maxsus obekt tarkibiga kiruvchi boshqa manfaatlarga tajovuz qilmaydi.

Yolg'on guvohlik berishning bevosita obekti ijtimoiy munosabatlarning alohida tarkibiy qismi emas, balki ijtimoiy munosabatlar guruhi hisoblanadi, shu bois mazkur jinoyat tufayli etkaziladigan zararga qarab har doim bevosita obekt aniqlanadi. Yolg'on guvohlik berishda sudning odil sudlovni amalga oshirishdek manfaatlariga tajovuz qilinib, sud majlisining cho'zilishiga olib kelishi, qo'shimcha guvohlarning chaqirilishi, ekspertizalar tayinlanishi, jinoyat ishini qo'shimcha tergovga qaytarilishi, aybdorning oqlanishi, aybsiz shaxsning jazoga hukm etilishi va ishning boshqacha tarzda noto'g'ri hal qilinishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tergov jarayonida bila turib yolg'on ko'rsatuv berish ham tergov yoki surishtiruv organlarining jinoyat ishlarini qonuniy va obektiv tergov qilishdek manfaatlariga tajovuz qiladi. Tergov organlarining asosiy maqsadi jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish, ish holatlarini har tomonlama, to'liq va obektiv o'rganish uchun qonunda nazarda tutilgan barcha chora-tadbirlarni ko'rish, ayblanuvchini fosh etuvchi dalillarni aniqlashdan iboratdir. Yolg'on guvohlik berish mana shu manfaatlarga jiddiy ziyon etkazishi; jinoyatchiga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishining asossiz tugatilishi; aybsiz shaxsning g'ayriqonuniy ravishda jinoiy javobgarlikka tortilishiga, uning qamoqqa olinishiga va boshqa shunga o'xshash holatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Yolg'on guvohlik berish - bir obektlili jinoyat¹, lekin aksariyat hollarda mazkur jinoyat yolg'on guvohlik berishning fakultativ obektlari² sifatida amal

¹ Айрим олимлар бу қилмишни икки объектли жиноят деб ҳисоблайди. Иккинчи объект сифатида шахснинг манфаатлари кўрсатилади. Комментарий к УК РФ Особенная часть. Под общей ред. Ю.И.Скуратова и В.М.Лебедева. - М., Инфра-М-Норма. 1996. - С. 378.

² Воробьев И.А. Защита свидетелей как одно из ключевых условий борьбы с организованной преступностью //Журнал Российского права. 1999. - №2. - С.134-138; Гулямов З.Х. Общая характеристика преступлений против правосудия в Республики Узбекистан. // Ж. Российская права. - 2002. - №4. - С.122-130.

qilishi mumkin bo'lgan boshqa muhim ijtimoiy munosabatlarga ziyon etkazadi yoki ziyon etkazish xavfini keltirib chiqaradi. Shaxsning turli manfaatlari bila turib yolg'on ko'rsatuv berishning eng ko'p uchraydigan fakultativ obektidir. Chunonchi yolg'on ko'rsatuv, ayblov xususiyatiga ega bo'lgan xulosalar har doim shaxsning qonun bilan ko'riqlanadigan manfaatlariga (ko'pincha shaxs erkinligi) ziyon etkazishga qaratilgan bo'ladi. Xuddi shuningdek, aybsiz odamni jinoyat sodir etganlikda yolg'on ayblash uning shani va qadr-qimmatini qattiq tahqirlaydi va o'sha juda katta manaviy zarar etkazadi. O'ta og'ir va og'ir jinoyat sodir etishda ayblash bilan bog'liq yolg'on guvohlik berish shaxs manfaatlariga juda katta zarar etkazishi mumkin. Yuridik adabiyotlarda «Ushbu jinoyatning obekti odil sudlovni amalga oshiruvchi prokuratura, surishtiruv va dastlabki tergov idoralarining faoliyati hisoblanadi. Shu bilan birga, jinoyat qonunchiligi bilan qo'riqlanadigan yana bir obekti - bu yolg'on guvohlik berishga majburlashda guvohning, jabrlanuvchining, ekspertning, tarjimonning yoki ularning yaqin qarindoshlarining sog'lig'i hamdir»¹, degan fikrlar ham uchraydi.

M.H. Rustambaev esa «Yolg'on guvohlik berishning obekti surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura va sud organlarining sud ishlarini ko'rib chikish va hal etish bo'yicha normal faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar, shuningdek fuqaro, tashkilot va muassasalarning qonuniy huquq va manfaatlaridir»², deb takidlaydi.

Yolg'on guvohlik berish fuqarolarga moddiy zarar etkazish, davlat va jamoat tashkilotlarining mulkiy manfaatlariga tajovuz qilish (masalan moddiy ziyonni qoplashdan asossiz bosh tortish) bilan bog'liq bo'lishi ham mumkin. Bundan tashqari hatto, oqlov xususiyatga ega bo'lgan yolg'on guvohlik ham jinoyatdan jabr ko'rgan shaxsga manaviy yoki moddiy zarar etkazishi mumkin.

Shunday qilib, yolg'on guvohlik berishning asosiy obekti har doim bittadir, ayni vaqtda, fakultativ obektlar sifatida har doim muayyan holatda turli-tuman

¹ Юридик энциклопедия // Юридик фанлар доктори, профессор У.Таджихоновнинг умумий тахририда. -Т. "Шарқ". 2001. - 143б.

² Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Особенная часть. - Т.: ИПТД «O'qituvchi», 2004. - 758 б.

ijtimoiy munosabatlar amal qilishi mumkin.

Odil sudlovga etkazilgan zarar darajasi muayyan shaxsning bergan ko'rsatuvlari ahamiyatiga bog'liq bo'ladi. Jabrlanuvchi va guvohlarning yolg'on ko'rsatuvlari odil sudlovga, ayniqsa, katta zarar etkazadi. Dalillar etarli bo'lmagan jinoyat ishlarida yolg'on guvohlik berishning ijtimoiy xavflilik darajasi ortadi.

Tadqiqot jarayonida faol yolg'on guvohlik berish (birovni ayblab yolg'on ko'rsatuv berish) passiv yolg'on guvohlik berish (ishning biror bir holati to'g'risida to'liq malumot bermaslik)ga qaraganda og'irroq oqibatlarga olib kelishi aniqlandi. Faol yolg'on bilan bog'liq holatlarning 50% dan ortig'i sudlar yoki dastlabki tergov organlari tomonidan yanglish qaror chiqarilishiga sabab bo'lgan. Passiv yolg'on esa aksariyat hollarda sud ish yurituv va haqiqatni aniqlashda muayyan qiyinchiliklar tug'diradi, lekin yanglish qarorlar qabul qilinishiga olib kelmaydi¹. Shu bois jazoga hukm etilganlar orasida faol yolg'on guvohlik berganlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Yuqoridagi fikrlarni o'rganib, o'z nuqtai nazarimizni bayon etar ekanmiz, bizningcha, yolg'on guvohlik berishning obektini belgilashda bevosita O'zR JK 238-moddasi dispozitsiyasidan kelib chiqish lozim, ushbu moddaning 1-qismi bo'yicha obekt bu - odil sudlov (sud) va uni amalga oshirishga ko'maklashuvchi (prokuratura, dastlabki tergov va surishtiruv) organlarning normal faoliyati bo'lsa, 2-qismi bo'yicha obekt bu - jabrlanuvchi, guvoh, ekspert, tarjimon, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari (JK 8-bo'limiga muvofiq: qarindoshlar yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, yani ota-ona, aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, nevaralar shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-uka va opa-singillari)ning sog'lig'i hisoblanadi.

1.3. Yolg'on guvohlikning obektiv tomoni

Yolg'on guvohlik berish "formal" tarkibli jinoyatlar sirasiga kiradi, yani

¹ Лазовицкая Г.П. Правовые и криминологические аспекты борьбы с преступлениями, посягающими на участников правосудия // Российский следователь. 2006. - № 3. – С.30-33.

ularni kvalifikatsiya qilishda zararli oqibatlarining ro'y berganligi talab qilinmaydi. U yoki bu jinoyat tarkibining "formal" shakli jinoyatning ijtimoiy xavfliligi darajasiga baho berishga hech qanday tasir ko'rsatmaydi.

Yolg'on guvohlik berish - faol harakatlar natijasi bo'lib guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, tarjimonning surishtiruv, dastlabki tergov, sud jarayonida bila turib yolg'on guvohlik xulosa berishlarida, ish holatlari to'g'risidagi malumotlarni noto'g'ri tarjima qilishlari va so'roq bayonnomasiga ekspert xulosasiga imzo qo'yishlarida ifodalanadi¹.

O'zR JK 238-moddasining birinchi qismi dispozitsiyasida to'rtta jinoyat turining alomatlari tavsiflanadi:

- 1) guvohning bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi;
- 2) jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi;
- 3) ekspertning bila turib noto'g'ri xulosa berishi;
- 4) bir tildan ikkinchi tilga bila turib noto'g'ri tarjima qilish.

Bunday tasnif MX. Rustambaev² tomonidan ham ko'rsatib o'tilgan. Yuqorida zikr etilgan jinoyat tarkiblarining har biri o'ziga xos alomatlariga ega. Bu alomatlar: ularning obektiv tomoni va subektlarini bir-biridan farqlashga xizmat qiladi.

Quyida O'zR JK 238-moddasi birinchi qismida tavsiflangan har bir jinoyatning obektiv tomonini ko'rib chiqamiz. Ulardan asosiysi va eng ko'p sodir etiladigani jinoyat protsessida guvoh yoki jabrlanuvchilarning bila turib yolg'on ko'rsatuv berishidir.

O'zR JPK 65-moddasiga binoan, jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan biror holatni bilishi mumkin bo'lgan har qanday shaxs guvoh sifatida ko'rsatuv berish uchun chaqirilishi mumkin. Yolg'on ko'rsatuvning, yolg'on xulosaning ham mazmunini yolg'on tashkil etadi. Yolg'on deganda, subektning ongida to'g'ri aks etgan obektiv voqelikka zid fikrni ongli ravishda bildirish, yani

¹ Гулямов.З.Х. Преступления против правосудия. -Т. - 1997. – С.168.

² Рустамбаев МХ. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Ўзбекистан. Особенная часть - Т.: ИПТД «O'qituvchi», 2004. -759 б.

muayyan shaxsga ongli ravishda yolg'on axborot berish tushuniladi. Lekin bila turib yolg'on ko'rsatuv berish tarkibini har qanday yolg'on emas, balki muayyan ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar bo'yicha sud-tergov organlariga malum qilingan, yani isbotlanishi lozim bo'lgan faktlarga oid bo'lgan yolg'on tashkil etadi. Jinoyat ishlari bo'yicha isbotlash predmeti O'zR JPK 82-moddasida va boshqa bir qancha moddalarida belgilangan.

Jinoyat protsessual qonuniga muvofiq, isbotlash predmetiga quyidagi holatlarni kiritish mumkin: 1) jinoyatning obekti; jinoyat tufayli etkazilgan ziyonning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchi shaxsini tavsiflovchi holatlar; 2) sodir etilgan jinoyatning vaqti, joyi, usuli, shuningdek JKda ko'rsatib o'tilgan boshqa holatlar orasidagi sababiy bog'lanish; 3) jinoyatning ushbu shaxs tomonidan sodir etilganligi; 4) jinoyatning to'g'ri yoki egri qasd bilan yohud beparvolik yoki o'z-o'ziga ishonish oqibatida sodir etilganligi, jinoyatning sabab va maqsadlari; 5) ayblanuvchining, sudlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar (O'zR JPK 82-moddasi).

Guvoh fuqarolik protsessida ham isbotlash predmetiga kiruvchi har qanday holatlar yuzasidan so'roq qilinishi mumkin (O'zR FPK 36, 69, 71 va 72-moddalari). Binobarin, muayyan jinoyat yoki fuqarolik ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan har qanday holatlar yuzasidan yolg'on malumot berish yolg'on guvohlik berish deb, kvalifikatsiya qilinishi lozim. Muayyan jinoyat tarkibining alomatlari, etkazilgan zararning xususiyati va miqdori, aybdorning shaxsini tavsiflovchi malumotlar, jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar, ayblanuvchining javobgarligini engillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar va h.k. jinoyat ishi bo'yicha mana shunday holatlar bo'lishi mumkin.

O'z shaxsi haqida yolg'on malumot berish, agar bu malumotlar guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilishdan avval aniqlangan bo'lsa, yolg'on guvohlik berish hisoblanmaydi, Anketa malumotlari deb ataluvchi bu malumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi va joyi h.k.) ko'rsatuv hisoblanmaydi va ularning aksariyati hujjat bilan tasdiqlanishi lozim. Agar yuqorida zikr etilgan malumotlar

muayyan ish bo'yicha ahamiyatli bo'lsa, ular guvoh ko'rsatuvlarining predmeti bo'lishi mumkin.

Guvoh va jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishining obektiv tomoni chegarasini to'g'ri belgilash uchun dalilning maqbulligiga tegishli ayrim talablar etiborga olinishi zarur. Protsessual qonunda belgilangan talablarga rioya etilgan holda, shu jumladan qonunda nazarda tutilgan manbalardan olingan dalillargina maqbul dalillar, deb etirof etiladi¹.

Manbasi nomalum bo'lgan dalil nomaqbul dalil hisoblanadi. "Dalillarning maqbulligi quyidagilarni nazarda tutadi: malumotlarning kelib chiqishini bilish hamda ularni tekshirish imkoniyati, ushbu malumotlar to'g'risida xabar berayotgan shaxs tomonidan ularni qabul qilish imkoniyati, isbot qilishning ham umumiy qoidalariga, ham muayyan turdagi axborotni to'plash va qayd etish qoidalariga rioya etish (JPKning 17, 18, 20, 22, 87-92, 110, 111, 198-202, 208-m. va xokazo), protsessning muayyan bosqichini tartibga soladigan hamda jinoyat ishini yuritayotgan shaxsning vakolatlarini belgilaydigan qoidalariga rioya etish. Qonunda belgilanmagan manbalardan olingan dalillardan foydalanishga yo'l ko'yilmaydi (JPKning 81-m. 2-q.)".

Dalillarning maqbulligi bilan bog'liq boshqa qoidalarining chunonchi: bayonnoma tuzish, uni tanishtirish va imzolatish, guvoh yoki jabrlanuvchini chaqirish qoidalarini bo'zish, so'roq olib borishda noto'g'ri usullarni qo'llash va h k. da yolg'on guvohlik berish tarkibi mavjud, chunki bunday qoidabuzarliklar ish bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar yuzasidan berilgan yolg'on ko'rsatuvlarning ijtimoiy xavfliligini bartaraf etmaydi va olingan malumotlarning dalillik ahamiyatining yo'qotilishiga doim ham olib kelavermaydi.

O'zR JK 238-moddasiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi to'g'risida ogohlantirish, garchi jinoyat emas, balki protsessual qonunda bilan belgilangan bo'lsa-da, ko'rsatuvlarning aniqligini taminlash, yolg'on ko'rsatuvlar berilishining oldini olishga qaratilgandir. Shu bois jinoiy javobgarlik to'g'risida

¹ Иномжонов Ш.Х. Жиноят процессида далилларни тақдим қилиш ва улардан фойдаланиш муаммолари (Монография 2-нашр).-Т.:ТДЮИ. - 2006. – Б.23-24.

ogohlantirish bila turib yolg'on ko'rsatuv berish tarkibining elementi hisoblanadi va mazkur jinoyat sodir etilgan holatni tavsiflaydi.

Yolg'on guvohlik berish obektiv tomondan muayyan vaziyat bilan ham tavsiflanadi. Yani jinoyat yoki fuqarolik ishlari bo'yicha ish yurituvini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan organlarga berilgan yolg'on malumotlargina yolg'on guvohlik tarkibini hosil qiladi. Sud dastlabki tergov va surishtiruv organlari mana shunday vakolatli organlar hisoblanadi. Mazkur organlar faqat qonunda belgilangan vaqtda dastlabki tergov va surishtiruv organlari jinoyat ishi qo'zg'atilgan vaqtdan boshlab, sud ishni ko'rish vaqtida so'roq qilish, tergov va sud harakatlarini amalga oshirish huquqiga ega. Bundan tashqari fuqarolik ishlari bo'yicha guvohlik ko'rsatuvlari sud tomonidan ish sudda ko'rilgunga qadar sud topshirig'i tartibida, shuningdek, sud yoki notarial idoralar tomonidan dalillarni taminlash tartibida olinishi mumkin.

Binobarin, bir qancha protsessual harakatlarni amalga oshirishga vakolatli organlar orasida qonunda notariat ham tilga olingan va shu bois davlat notariusiga bila turib yolg'on ko'rsatuv berish (O'zR JK 238-moddasida bu organ tilga olinmaganligiga qaramay) yolg'on guvohlik berish tarkibi alomatlari bilan qamrab olinadi. Fikrimizcha, JK 238-1 moddasi dispozitsiyasiga notariusni ham kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shunday qilib, ijtimoiy xavfli harakat hamda muayyan holatning mavjudligi obektiv tomonning yolg'on guvohlik berish tarkibini tavsiflovchi zaruriy elementlaridir.

Har qanday harakat singari, yolg'on guvohlik berish ham malum usullarda ifoda etiladi. Yolg'onni rostdan farqlash uchun bu usullarni bilish muhimdir. Lekin yolg'on guvohlik berish usullarini ko'rib chiqishdan oldin, bu jinoyat harakatsizlik bilan sodir etilishi mumkin emasligini yana bir bor qayd etib o'tmoqchimiz. Shu bois ayrim huquqshunoslarning yolg'on guvohlik berish guvohning o'ziga malum faktlarni yashirishida aks etishi mumkin¹, degan fikriga qo'shila olmaymiz. Til

¹ Кузьмина С.С. Лжесвидетельство. СПб.. 1995. – С .9; Порубов И.И. Тактика допроса на предварительном

vositasida (og'zaki yoki yozma nutq shakllarida) ifodalanuvchi yolg'on ko'rsatuv berish jismoniy hodisa, inson irodasining faol ko'rinishidir¹.

Tashqi muhitda o'z ifodasini topgan yolg'ongina shu manoda qabul qilinishi mumkin. Yolg'on ko'rsatuvlar tashqi muhitda uydirma, haqqoniy ma'lumotlarni buzib ko'rsatish va inkor etish tarzida ham ifodalanishi mumkin. Binobarin, malum faktlarni yashirish yolg'on guvohlik berishning mustaqil shakli hisoblanmaydi, lekin yolg'onning shakli bo'lishi mumkin.

M.H.Rustambaev haqli ravishda «Guvoh yoki jabrlanuvchi ko'rsatuvlari, agar ular surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi olib borilayotgan vaqtda ish bo'yicha haqiqatni aniqlashda isbotlash ahamiyatiga ega bo'lgan ish holatini to'liq yoki bir qismini qasddan buzib ko'rsatsa, yolg'on deb hisoblanishi lozim. O'ylab chiqarilgan, buzib ko'rsatilgan faktlar haqida xabar beradigan ko'rsatuvlar yolg'on hisoblanadi»², deb yozadi.

Yolg'on ko'rsatuvlarning kuydagi shakllarini kayd etish mumkin: a) haqqoniy malumotni yashirish; b) haqqoniy malumotni inkor etish; v) uydirma malumot berish; g) haqqoniy malumotni yashirish va uydirma malumot berish; d) ayrim haqqoniy malumotni yashirish va boshqa haqqoniy malumotni inkor etish; e) uydirma malumotlarni tasdiqlash³. Lekin bu mazkur jinoyat harakatsizlik bilan sodir etilishi mumkin, degan manoni anglatmaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib yolg'onni shartli ravishda faol va passivga ajratish mumkin. Faol yolg'on amaldagi hodisani qayta ishlab, uni jiddiy buzib ko'rsatuvchi malumotlar berishni nazarda tutadi, passiv yolg'on esa muayyan malumotlarni yashirish, haqqoniy malumotlarni inkor etishda namoyon bo'ladi.

следствии. - М., Бек. 1998. - С.98. Щерба С.Н., Зайцев О.А. Охрана прав потерпевших и свидетелей по уголовному делам. - М.,Спарк. 1996. - С.18-19.

¹ Аберхаев Э.Р. Свидетельский иммунитет как гарантия право на неприкосновенность частной жизни. // Российский следователь. 2006. - №4. – С.8-12.

² Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Особенная часть -Т.: ИПТД «O'qituvchi», 2004. - 759-б.

³ Алламурастов Д.Т. Свидетельские показания. // Ёш олимлар тўплами. -Т.: ТГЮИ, 2004. - С. 98-103; Новиков С.А. Наказание за лжисвидетельство: дискуссионные вопросы // Российский следователь. - №5. - 2006. - С 10-12.

Malumotlarni yashirish deganda malum hodisa to'g'risidagi malumotlarni to'liq yoki qisman yashirish tushuniladi. Malumotlarni qastdan yashirish uydirma malumot berish, haqqoniy malumotlarni buzib ko'rsatish va inkor etish orqali bila turib yolg'on ko'rsatuv berish, xulosa berish yoki noto'g'ri tarjima qilishda uchraydi. Umuman malumot bermaslik orqali yolg'on guvohlik berilishi mumkin emas, zero yolg'on ko'rsatuv berishning mohiyati malum hodisa haqida bila turib noto'g'ri xabar berish yolg'on axborot berishdan iboratdir.

Yolg'on ko'rsatuv berish amalda mavjud faktni to'liq yoki qisman buzib ko'rsatishdan iborat bo'lishi ham mumkin. Bu yolg'onning eng ko'p tarqalgan va yashirin turidir. Amalda mavjud faktlarni buzib ko'rsatish vositasi sifatida yolg'on holatlarni qo'shish, malum xolatlar, jihatlar va qilmishlarni yashirish qo'llaniladi. Bu vositalar hodisa mazmunini o'zgartiradi, maqbul jihatlarini oshirib ko'rsatadi, hodisaning noxush tomonlarini kamaytirib ko'rsatadi yoki yo'qqa chiqaradi.

Amalda bo'lgan holatlarni inkor etish yoki shaxsning ish bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan holatlarni bilishi inkor etish yolg'on guvohlik berishning yana bir usulidir.

Bunday inkor etish ko'pincha dastlabki ko'rsatuvlarni yolg'on ko'rsatuvlarga o'zgartirishda namoyon bo'ladi.

Ayrim huquqshunoslarning fikricha, shaxsning hech narsa bilmasligi haqidagi ko'rsatuvi yolg'on ko'rsatuv hisoblanmaydi¹. Lekin, bunday ko'rsatuvda yolg'on ko'rsatuv berish bilan ishning mavjud holatlari buzib ko'rsatiladi. Bunda guvoh yoki jabrlanuvchining hech narsa bilmasligi haqidagi yolg'on ko'rsatuvi ular o'zlariga malumligini inkor etayotgan faktga emas, balki so'roq predmetiga taalluqlidir. Binobarin bunday ko'rsatuvlar yolg'on ko'rsatuv, so'roq qilinayotgan shaxsning savoliga berilgan yolg'on javob hisoblanadi. Masalan, sudda ayblanuvchi jabrlanuvchini qanday urib-do'pposlaganini ko'rmaganligi haqida

¹ Попов В.В. Некоторые формы появления правового нигилизма и пути его преодоления // Юрист. - 2002. - №1. - С.10-13.

yolg'on guvohlik bergan shaxs O'zR JK 238-moddasi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Bila turib yolg'on ko'rsatuv berishning ijtimoiy xavflilik darajasi har xil bo'lishi mumkin. Bu bir qancha omillarga bog'liq. Bunda yolg'on ko'rsatuvlarning muayyan jinoiy natijaga yo'naltirilganligi omili muhim rol o'ynaydi. Tabiiyki, jinoyat protsessida berilgan yolg'on ko'rsatuv va xulosalar ayniqsa xavflidir, chunki ular har xil jinoiy natijalarga erishishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Mazkur belgiga qarab, jinoyat protsessida uchraydigan yolg'on ko'rsatuvlarning quyidagi guruhlarini ajratish mumkin aybdorni oqlovchi, sodir etilgan qilmishning tasnifini engillashtiruvchi va aybdorga beriluvchi jazoni engillashtiruvchi yolg'on ko'rsatuvlar; aybsiz shaxsni jinoyat sodir etganlikda ayblovchi, shaxsni amaldagidan og'irroq jinoyat sodir etganlikda ayblovchi yolg'on ko'rsatuvlar; "aralash", yani aybsiz odamni ayblovchi va ayni vaqtda, aybdor shaxsini oqlovchi yolg'on ko'rsatuvlar.

Ayblov mazmunida bila turib yolg'on ko'rsatuv berishning ijtimoiy xavflilik darajasi ancha kattadir. Bu jinoyat har doim ikkita obektga: odil sudlovning ishlarni tergov qilish, ko'rib chiqish va hal qilishi bilan bog'liq manfaatlariga hamda shaxsning xuquq va erkinliklariga daxl etadi.

Jinoyat sodir etgan shaxslar foydasiga yolg'on ko'rsatuv berish sud amaliyotida ayniqsa, keng tarqalgan.

Fuqarolik protsessida ham yolg'on ko'rsatuv berilganida muayyan jinoiy natijaga erishish ko'zlanadi. Bunday ko'rsatuvlar davogar yoki arizachi foydasiga yoki unga qarshi, javobgar, uchinchi shaxslar yoki boshqa manfaatdor shaxslar foydasiga yoki ularga qarshi yohud shaxsiy manfaatlarda berilishi mumkin.

Guvoh yoki jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berishi mazkur shaxslar vakolatli shaxslar tomonidan o'tkazilgan so'roq, yuzlashtirish va tanib olish uchun ko'rsatish vaqtida yolg'on malumot bergan paytdayoq ushbu organlarning so'roq, yuzlashtirish, tanib olish uchun ko'rsatish yoki sud majlisi bayonnomalarida protsessual mustahkamlashga yo'naltirilgan keyingi harakatlaridan qati nazar tamom bo'lgan jinoyat tarkibini hosil qiladi.

Yuridik adabiyotlarda yolg'on guvohlik berishning tugallangan vaqtini belgilashga oid quyidagi fikrlar uchraydi:

1) guvohlar va jabrlanuvchilar so'roq yoki dastlabki tergov paytida ular tomonidan berilgan yolg'on guvohlik asosida ko'rsatuv berib, so'roq bayonnomasiga imzo ko'ygan vaqtda;

2) ekspert ekspertiza tayinlagan organga bila turib yolg'on xulosa bergan yoki surishtiruv, dastlabki tergov davrida so'roq bayonnomasiga yolg'on malumotlarni bila turib, unga imzo chekkan vaqtda;

3) tarjimon uni tayinlagan organga ish holatlarinn bayon qiluvchi noto'g'ri tarjima qilingan malumotlarni bergan yoki ish jarayonida og'zaki shaklda qasddan noto'g'ri tarjima qilgan vaqtda¹.

Ko'rib chiqilayotgan jinoyatning tamom bo'lgan vaqti to'g'risidagi masala yuzasidan huquqshunoslar har xil qarashlar bildiradilar. Bunday yolg'on ko'rsatuv sudda yoki dastlabki tergov jarayonida berilganiga qarab, jinoyatning tamom bo'lgan vaqti har xil tariflanadi. Birinchi holda yolg'on ko'rsatuv berilgan vaqtda jinoyat tamom bo'lgan deb, ikkinchi holda esa guvoh yoki jabrlanuvchi so'roq bayonnomasini imzolagan paytdan jinoyat tamom bo'lgan deb topiladi². Bunday farqlash asosli emas, chunki u qonun mazmunidan kelib chiqmaydi. Buning ustiga, guvohda dastlabki tergov bosqichida muayyan imtiyozlar bo'ladi, chunki bayonnomaga imzo chekkunga qadar yolg'on ko'rsatuvni to'g'rilash, o'z ko'rsatuvlaridan ixtiyoriy voz kechish jinoiy javobgarlikdan ozod etadi. Fikrimizcha, yolg'on ko'rsatuvni o'z vaqtida haqqoniy ko'rsatuvlarga o'zgartirish jinoyat tarkibini istisno etmaydi, balki yolg'on guvohlik beruvchining aybini engillashtiruvchi holatlardan biri hisoblanadi. Agar guvoh yolg'on guvohlik berishdan ixtiyoriy ravishda qaytsa, u holda javobgarlikdan ozod qilinishi lozim.

Ekspertning yolg'on xulosa berishi qo'yilgan savollarga yolg'on javoblar berishda namoyon bo'ladi. Bu ekspert xulosalarida ifodalangan yolg'on

¹ Гулямов З.Х. Преступления против правосудия. -Ташкент. 1997. - С. 165.

² Новиков С.Л. Наказание за лжесвидетельство: дискуссионные вопросы. //Российский следователь. 2006. - №5. - С.10-12.

malumotlarga pirovard natijada bila turib yolg'on xulosa berish tarkibini tashkil qilishini bildiradi¹.

Adabiyotlarda ekspert xulosasi: kirish, tadqiqot va xulosa qismiga ajratiladi. Xulosaning kirish yoki tadqiqot qismiga yolg'on malumotlar kiritishning o'ziyoq bila turib yolg'on xulosa berish tarkibini hosil qilishi mumkin. Bu quyidagi holatlar bilan izohlanadi.

Xulosaning kirishida ekspertiza o'tkazilgan sharoitlarni tavsiflovchi malumotlar (qaerda, qachon, kim tomonidan, qanday asosga ko'ra o'tkazilgani, kim ishtirok etgani) olingan obektlar va materiallar, ulardan foydalanilish hamda ko'yilgan savollar to'g'risidagi malumotlar ifodalanadi. Bu malumotlarning barchasi yordamchi rol o'ynaydi va faqat xulosaga baho berish uchun zarurdir. Ular maxsus bo'limlarga taalluqli emas, xulosaning asosiy mazmunini tashkil etmaydi va amalga oshirilgan tadqiqot natijasi hisoblanmaydi. Shu bois xulosaning kirish qismiga yolg'on malumot kiritish o'z holicha jinoyat tarkibini hosil qilmaydi, lekin u yolg'on xulosa berish vositasi yoki sharti sifatida qo'llanilishi mumkin. Chunonchi, ekspertning ishga layoqatsizligi yoki ishdan manfaatdorlik yashirish vositasi bo'lib xizmat qilgan yolg'on malumotlar mana shunday shartlar deb topilishi mumkin.

Xulosaning tadqiqot qismida tadqiqotning umumiy ilmiy qoidalar va metodlari, o'tkazilgan tadqiqotlar, ularning jarayoni hamda tadqiqot jarayonida kuzatilgan alomatlar, xossalari, sifatlar aks ettiriladi, aniqlangan faktlar yoki berilgan material tahlil qilinadi va ularga baho beriladi. Amalda xulosaning tadqiqot qismida ekspert oldiga qo'yilgan savollarga berilgan javoblar o'z ifodasini topadi. Yolg'on xulosalar chiqarish uchun zamin aynan tadqiqot qismida yaratiladi. Taqdim etilgan yoki topilgan materialni buzib ko'rsatish yoki aniqlangan faktlar, alomatlar, xossalarni yashirish yoki yolg'on baho berish va asoslash yohud tadqiqot olib borishda noto'g'ri ilmiy qoidalar va metodlardan foydalanish yo'li bilan tadqiqot zarur xulosalarga moslashtiriladi. Ammo faqat buzib ko'rsatilgan

¹ Гулямов З.Х. Общая характеристика преступлений против правосудия в Республики Узбекистан. // Российская права. -2002. - №4. - С. 123.

tadqiqot qismining mavjudligi xam yolg'on xulosa berish tarkibini hosil qilmaydi, chunki u to'liq emas, protsessual talablarga javob bermaydi va tegishli organlarga taqdim etilishi mumkin emas. Boshqa tomondan tadqiqot qismi buzib ko'rsatilgani holda to'g'ri xulosalar berilishi mumkinligi mantiqqa ham sog'lom fikrga ham ziddir.

Buning ustiga, protsessual huquqga oid adabiyotlarda ekspert xulosasi tushunchasining ikki xil: tor va keng talqini mavjud. Ekspert xulosasi keng ma'noda "ekspert tadqiqoti jarayoni va uning natijalarini qayd etuvchi hujjatdir"¹. Ekspert xulosasi tor manoda qo'yilgan savollarga ekspertning asoslantirilgan javoblaridir². O'zR JPK 184-moddasiga binoan, ekspert zaruriy tekshirishlarni o'tkazib bo'lganidan keyin, o'z nomidan yozma xulosa tuzadi va uni imzolab tasdiqlaydi. Fikrimizcha, JK 238-moddasi dispozitsiyasida tor manodagi ekspert xulosasi, yani ko'yilgan savollarga javob tariqasidagi xulosa nazarda tutiladi. Zotan, bunday xulosa faqat xulosaning protsessual shaklida ifoda etilishi mumkin.

Lekin, O'zR JPK 186-moddasiga binoan, ayrim hollarda ekspert o'zi bergan xulosasini tushuntirishi yoki unga ko'shimcha qilishi uchun so'roq qilinishi mumkin. Bu haqida so'roq bayonnomasi tuziladi. Shu bois ekspertning o'zi bergan xulosani rivojlantirishi yoki unga ko'shimcha qilishi maqsadida yolg'on ko'rsatuv berishida bila turib yolg'on ko'rsatuv berish tarkibining alomatlari mavjud bo'ladi.

O'zR JPK 172-moddasi 2-qismiga binoan, ekspert oldiga qo'yilgan masalalar va uning xulosasi ekspertning maxsus bilimlari doirasidan chetga chiqishi mumkin emas.

Ekspertning o'z vakolati doirasiga kirmaydigan huquqiy masalalar (masalan, o'zganing mol-mulki talon-taroj qilish yoki kamomad, odam o'ldirish yoki o'z joniga qasd qilish mavjudligi) yuzasidan bergan xulosasi dalil sifatida qabul qilinishi mumkin emas, zero u o'z mazmuniga ko'ra sud va dastlabki tergov

¹ Алимова Р., Отахўжаев С. Суд экспертизасини ташкил қилиш ва ўтказиш масалалари. Т.: Янги аср авлоди. – 2001. - Б.16.

² Джалолов ДД., Бахриев И.И., Жуманиёзов Э.Х., Хакбердиева Р.Т. Суд-тиббий экспертиза объектларини экспертиза ҳуқуқий асослари. Т., ЎзМУ. 2004. - Б. 21.

organlari uchun maqbul bo'lmaydi. Shu bois ekspertning huquqiy masalalar yuzasidan bila turib bergan yolg'on xulosasi jinoyat hisoblanmaydi.

O'zR JPK 68-moddasiga muvofiq, agar hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar ekspertning mutaxassisligiga oid bo'lmasa yoki xulosa berish uchun unga taqdim etilgan materiallar etarli bo'lmasa, ekspert xulosa berishning iloji yo'qligi to'g'risida hujjat tuzishi mumkin.

Yolg'on ko'rsatuv berish singari, ekspertning yolg'on xulosa berishi ham javoblarni to'qib chiqarish yoki buzib ko'rsatish yohud xulosalarda topilgan faktlarni inkor etish usulida amalga oshiriladi. Masalan, hujjatda ko'shib yozish holatlari bo'lsada, ekspert bunday holatlar aniqlanmagani to'g'risida yolg'on xulosa beradi.

Yolg'on guvohlik berishning boshqa subektlaridan farqli o'laroq, tarjimon hech qanday dalillar taqdim etmaydi. Tarjimon ham jinoyat yoki fuqarolik protsessining ishtirokchisidir. U odil sudlovni amalga oshirishga texnik yordam ko'rsatadi. Tarjimonni mutaxassislardan biri deb hisoblash mumkin, zero, tarjimon til va boshqa belgilar sohasida maxsus bilim va ko'nikmalarga ega shaxsdir¹.

JPK 20-moddasiga muvofiq, ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan yoki etarli darajada tushunmaydigan protsess ishtirokchilariga o'z ona tilida yoki o'zi biladigan boshqa tilda og'zaki yoki yozma arz qilish, ko'rsatuv va tushush tirishlar berish, iltimosnoma va shikoyatlar bilan murojaat qilish, sudda so'zlash huquqi taminlanadi. Bunday hollarda, shuningdek, ish materiallari bilan tanishish vaqtida protsess ishtirokchilari qonunda belgilangan taribda tarjimon xizmatidan foydalanishlari mumkin. Ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki protsessda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga taqdim etilishi lozim bo'lgan tergov va sud hujjatlari ularning ona tiliga yoki ular biladigan boshqa tilga tarjima qilib berilishi lozim.

Qonunga muvofiq, har qanday malumotlar, hujjatlar, og'zaki malumotlar va boshqa materiallar tarjima predmetini tashkil etishi mumkin². Binobarin, har

¹ Никулина Х.А., Горбунова Н.А. Участники уголовного процесса с неопределенным положением // Уголовный процесс. 2006. - № 7. - С. 21-22.

² Уголовно-процессуальное право. Учебник. Под. Ред. П.А.Лупинской. М: Юрист. 1997. - С. 342.

qanday malumotlarni taqdim etilgan material yoki matnga mos kelmaydigan tarzda noto'g'ri tarjima qilish yuqorida zikr etilgan jinoyatning obektiv tomonini tashkil etishi mumkin, zero O'zR JPK 72-moddasiga binoan, tarjimon o'ziga topshirilgan tarjimani aniq va to'liq bajarishi shart. Bunda tarjima qilinayotgan materialning haqqoniy yoki yolg'on ekanligi ahamiyatsizdir, shu bois qonun chiqaruvchining yolg'on tarjima qilish to'g'risida emas, balki noto'g'ri tarjima qilish to'g'risida so'z yuritgani bejiz emas.

Bila turib yolg'on xulosa berish va bila turib noto'g'ri tarjima qilish yozma shaklda berilgan, sud-tergov organlariga topshirilgan vaqtdan boshlab, noto'g'ri tarjima og'zaki bo'lganida esa - noto'g'ri tarjima qilingan paytdan boshlab tamom bo'lgan jinoyat hisoblanadi. Mazkur hujjatlar yuqorida zikr etilgan organlarga topshirilmagunicha ular huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati doirasiga kiritilmaydi, chunki ular mazkur hujjatlarda ifodalangan axborotni hali olmagan hisoblanadi.

Yolg'on guvohlik berish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan O'zR JK 238-moddasining 2-qismida esa quyidagi harakatlar uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan:

- a) yolg'on guvohlik berish maqsadida pora evaziga olish;
- b) yolg'on guvohlik berishga majburlash maqsadida guvoh jabrlanuvchi, ekspert yoki tarjimonga, yoki ularning yaqin qarindoshlariga ruhiy yoki jismoniy tasir ko'rsatish.

Pora evaziga og'dirib olish - aybdorga dastlabki tergov bosqichida yoki sud muhokamasida yolg'on guvohlik berishi (noto'g'ri xulosa berishi, noto'g'ri tarjima qilishi) uchun shaxsan yoki vositachi orqali pul, qimmatbaho buyum, yoki boshqa mol-mulk topshirish, yoxud mulkiy xarakterdagi xizmat ko'rsatishni taklif qilishdir¹.

Yolg'on guvohlik berilishiga erishish maqsadida guvoh (jabrlanuvchi,

¹ Зуфаров Р.А. Порахўрлик учун жиноий жавобгарлик. Т. 2004. – Б.78; Алилов Г.А. Криминологический анализ подкупа или принуждения к даче показаний или уклонению от дачи показаний либо к неправильному переводу: региональный аспект. // Российский следователь. 2006. - №6. – С.26-29.

ekspert, tarjimon)ga ruhiy yoki jismoniy tasir o'tkazish O'zR JK 238-moddasi 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Ruhiy tazyiq mazmuni sog'liqq shikast etkazish yoki mol-mulkni nobud qilish bilan guvoh, jabrlanuvchi, ekspert yoki tarjimonni. shuningdek ularning yaqin qarindoshlarini ko'rqitib, yolg'on guvohlik yoki xulosa berishni, yohud noto'g'ri tarjima qilishni talab etishda ifodalanadi.

Jismoniy tazyiq deyilganda, jabrlanuvchini urish, do'pposlash, unga engil tan jarohati etkazish tushuniladi. Agar o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati etkazilganda, yohud o'ldirish bilan qo'rqitilganda, aybdorniig qilmishi jinoyatlar majmui sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, tarjimonga pora yoki zo'rlik ishlatib emas, balki iltimos qilib, ko'ndirishga undab, bolalari borligini ro'kach qilib va h.k. yo'llar bilan tasir ko'rsatilsa, aybdorning qilmishlari O'zR JK 238-moddasi 2-qismi bilan emas, balki dalolatchi sifatida JK 28-moddasi orqali 238-moddasi 1-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksning 238-moddasi uchinchi qismida ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilganida jinoiy javobgarlik belgilangan.

1.4. Yolg'on guvohlikning subekti.

O'zR JK 238-moddasi birinchi qismida faqat guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar va tarjimonlar yolg'on guvohlik berish jinoyatining subektlari bo'lishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Jinoyat va fuqarolik protsesslarida guvoh, jabrlanuvchi, ekspert yoki tarjimon sifatida ishtirok etmaydigan boshqa shaxslar mazkur moddaga binoan bajaruvchi sifatida javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Binobarin, bu shaxslar JK 238-moddasi birinchi qismida javobgarlik belgilangan jinoyatning maxsus subektlari hisoblanadi va shu bois, ular umumiy alomatlar (16 yoshga to'lgan akli raso jismoniy shaxslar)dan tashqari, o'z kasbiy faoliyatining turiga mos keluvchi maxsus alomatlariga ega bo'lishi talab qilinadi.

Bu alomatlar jinoyat-protsessual va fuqarolik-protsessual qonun hujjatlarida ochib berilgan.

Guvoh - yolg'on guvohlik berish jinoyatining asosiy subektlaridan biri bo'lib, O'zR JPK 65-moddasiga muvofiq, guvoh - jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan biror holat yuzasidan ko'rsatuv berish uchun chaqirilgan shaxs. Ammo mazkur tarif guvohning yolg'on guvohlik berish subekti sifatidagi bir qancha muhim, yani guvohlarni bila turib yolg'on ko'rsatuv berish subekti hisoblanmagan shaxslardan farqlash imkonini beruvchi alomatlarini o'zida aks ettirmaydi.

Sodir etilgan jinoiy harakatlarga guvohning daxldor emasligi uning muhim alomatlaridan biridir¹. Bu alomat so'roq qilinayotgan shaxsning tergov qilinayotgan va ko'rib chiqilayotgan jinoyatga bevosita bog'liq bo'lgan jinoyat alomatlari mavjud bo'lgan biror bir harakatlarni sodir etmaganligini anglatadi. Shaxsning mazkur jinoyatga o'zga tarzda, hatto mamuriy, fuqarolik huquqbuzarliklari va hokazolarda ifodalangan jinoiy bo'lmagan aloqasi mazkur shaxsni yolg'on guvohlik berish subekti, deb topishga monelik qiluvchi holat hisoblanmaydi.

Fuqarolik protsessidagi bila turib yolg'on ko'rsatuv berishning subekti bo'lgan guvoh tushunchasiga kelsak, guvoh tariqasida ko'rsatuv beruvchi shaxsning sudda ko'rilyotgan fuqarolik ishiga daxlsizligi alomati zarur bo'lmaydi, chunki bu erda yolg'on ko'rsatuv beruvchi guvohning keyingi qilmishi har qanday fuqarolik huquqbuzarligidan xavfliroqdir, zero, u odil sudlovning vazifalarini amalga oshirish bo'yicha normal faoliyatini izdan chiqarishga qodirdir.

Guvoh - ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar yuzasidan ko'rsatuv berish uchun chaqirilgan, ish yakunidan yuridik manfaatdor bo'lmagan shaxs, degan tarif fuqarolik protsessida ayniqsa keng tarqalgan. Yuridik jihatdan manfaatdor emasligi tufayli guvohlar protsessda taraflardan biri yoki uchinchi shaxs sifatida ishtirok etmaydi. Ammo, amalda guvohning ish yakunidan manfaatdorligini inkor qilib

¹ Воробьев И.А. Защита свидетелей как одно из ключевых условий борьбы с организованной преступностью // Журнал Российского права. 1999. - №3. - С. 134.

bo'lmaydi.

O'zR FPKning 69-moddasiga binoan esa, ish bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan biror holatni bilishi mumkin bo'lgan har qanday shaxs guvoh sifatida ko'rsatuv berishga chaqirilishi mumkin. Mazkur moddaning tarifi O'zR 65-moddasidagi tarifdan deyarli farq qilmaydi.

Xo'sh, jinoyat protsessida guvohning ko'rib chiqilayotgan jinoyatni sodir etishga daxlsizligi alomati nimaga asoslanadi? Birinchidan, jinoyat qonunida jinoyatga daxlsizlik to'g'risidagi normalarni tahlil qilish orqali jinoyat sodir etgan shaxs sodir etilgan jinoyat xolatidan obektiv kelib chiquvchi keyingi qilmishlar uchun jazoga tortilmasligi to'g'risidagi qoidani aniqlash mumkin. Jinoyatni yashirganlik uchun jinoiy javobgarlikni bslgilar ekan, qonun chiqaruvchi o'zlari yashirayotgan jinoyatni sodir etishda ishtirok etmagan shaxsgina mazkur jinoyatning subekti bo'lishi mumkinligini nazarda tutadi. Xuddi, shuningdek, O'zR JK 238-moddasida asosiy jinoyatni¹ sodir etgan shaxslar bu moddalarda nazarda tutilgan qilmishlarning subektlari sifatida tilga olinmaydi. Ikkinchidan, jinoyat protsessi huquqi fani vakillarining aksariyati guvohli tergov qilinayotgan yoki ko'rilayotgan jinoyatni sodir etishga daxlsiz bo'lgan, surishtiruv, tergov yoki sud organlarining talabiga binoan o'ziga malum bo'lgan ish uchun muhim holatlar to'g'risida malumot beruvchi shaxs², deb tariflaydi.

Amalda sodir etilgan jinoyatga daxldor shaxslarning uch toifasi guvoh, tariqasida so'roq qilinadi: 1) tergov jarayonida keyinchalik ayblanuvchi tariqasida jalb qilinuvchi shaxslar; 2) O'zR JPKda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, ularga nisbatan jinoiy taqibni tugatish yoki jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qarorlar chiqarilgan shaxslar; 3) jinoyatning boshqa ishtirokchilariga nisbatan alohida ish yurituviga ajratilgan jinoyat ishlari bo'yicha so'roq qilinayotgan, sudlangan shaxslar.

Yuqorida zikr etilgan shaxslar bila turib yolg'on ko'rsatuv berish uchun

¹ Асосий жиноят деганда, уларни содир этган шахслар берган ёлгон гувоҳлик билан боғлиқ барча жиноятлар тушунилади.

²Иноғомжонова З.Ф. Жиноят процесси иштирокчиларининг ҳуқуқ ва манфаатларининг кафолатлари. / Илмий-назарий анжуман материаллари. -Т.: ТДЮИ. 2003. -Б.71-73.

jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas. O'zR JK 238-moddasining dispozitsiyasiga muvofik so'roq qilinishiga sabab bo'lgan jinoyatni sodir etishga daxldor bo'lmagan shaxs guvoh deb tushuniladi. Buning aksi esa aybdor shaxs o'ziga qarshi guvohlik berishi, jinoyat sodir etganini fosh etishga yuridik jihatdan majbur, degan manoni bildirgan bo'lur edi.

O'z tabiatiga ko'ra sodir etilgan asosiy jinoyat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan keyingi qilmishlar uchun aybdor shaxsni jinoiy taqib qilishdan voz kechish quyidagi qarashlar bilan asoslanadi; birinchidan, bunday qilmishlar jinoyatchining tabiiy ravishda o'z-o'zini himoya qilishga intilishi natijasi hisoblanadi¹. Ikkinchidan, qonun chiqaruvchi jinoyatni mumkin qadar fosh qilib bo'lmaydigan tarzda sodir etishga harakat qiluvchi aybdorning holatini hamda "uning o'zini-o'zi oqlashga intilishi"ni alohida etiborga oladi². Bunday etiborga olish insonparvarlik, adolat, shaxsning erkinligini hurmat qilish printsiplariga asoslanadi. Bunda inson psixologiyasi qonuniyatlari ham muhim o'rin tutadi.

Uchinchidan, mazkur qoida "adliya manfaatlari to'g'risida g'amxo'rlik ruhi bilan sug'orilgan", zero adliya faoliyati shunday tashkil etilishi kerakki, "ayblanuvchi qanday ko'rsatuv berganidan qati nazar, uning yordamisiz haqiqatni aniqlash mumkin bo'lsin"³.

To'rtinchidan, aybdorning asosiy jinoyatga daxldor qilmishlari uchun jazoga tortilmasligi to'g'risidagi qoidani amalga oshirmasdan turib jinoyat protsessida fuqarolarning himoyalaniish huquqiga egaligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy printsipini ro'yobga chiqarish ham mumkin emas. Bundan tashqari, mazkur qoida boshqa bir konstitutsiyaviy printsip - aybsizlik prezumptsiyasi printsipida ham o'z aksini topgan. Bu printsipga binoan, jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi

¹ Лупинская П. Допустимость доказательств //Российская юстиция. 1998. -№ 11. – С. 34-36.

² Брусницын Л. Как обезопасить лиц, содействующих уголовному правосудию// Российская юстиции. 1995 - №9. – С. 47-50.

³ Аберхаев Э.Р. Свидетельский иммунитет как гарантия право на прикосновенность частной жизни //Российский следователь. №4. 2006. - С 10.

(O'zR Konstitutsiyasi 26-moddasi 1-qismi).

Bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyatining subekti bo'lgan guvohning yana bir alomati shundan iboratki, shaxs muayyan ish uchun ahamiyatli bo'lgan malum holatlar yuzasidan vakolatli organlar tomonidan so'roq qilinadi. Isbotlanishi lozim bo'lgan muayyan holatlar yoki ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa malumotlarning shaxsga malumligi to'g'risidagi asosli tahmin shaxsni guvoh tariqasida chaqirilishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Jinoyat shohidi bo'lgan yoki ish bilan bog'liq muayyan holatlardan xabardor shaxs protsessual nuqtai nazardan guvoh hisoblanmaydi. Fuqaro vakolatli organlar tomonidan chaqirilgan va guvoh tariqasida so'roq kilinganidan keyingina guvohga aylanadi.

İstalgan shaxs guvoh tariqasida tergov organlariga chaqirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida ayblanuvchining qarindoshlarga, himoyachilarga - o'z vazifasini bajarishi munosabati bilan ishning o'ziga malum bo'lgan holatlari to'g'risida fuqarolik protsessida fuqarolik ishi taraflarining vakillariga ko'rsatuv berishdan bo'yin tovlash huquqi berilgan.

Bundan tashqari, O'zR JPK 115-moddasi 3-bandi va O'zR FPK 69-moddasi 2-bandiga binoan, o'z jismoniy va ruhiy kamchiliklariga ko'ra ish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni to'g'ri idrok etishga va ular to'g'risida to'g'ri ko'rsatuv berishga kodir bo'lmagan shaxs guvoh tariqasida so'roq qilinishi mumkin emas. Jinoyat-huquqiy nuqtai nazardan, bunday holatlarning mavjudligi yuqorida zikr etilgan shaxslarniig obektiv yolg'on ko'rsatuv berganida ham aybining yo'qligini, binobarin, yolg'on guvohlik berish tarkibi ham mavjud emasligini anglatadi. Shu bois yolg'on guvohlik berish jinoyatining subekti tushunchasida to'g'ri idrok etishga monelik qiluvchi ruhiy yoki jismoniy kamchiliklarga ega shaxs tahlil qilinayotgan jinoyat subekti bo'laolmasligini maxsus qayd etish shart emas¹. Binobarin, bunday shaxs yolg'on ko'rsatuvni uning haqiqatga zidligini anglagan holda bergan bo'lsa bila turib yolg'on ko'rsatuv berish to'g'risidagi modda bo'yicha umumiy asosda javobgar bo'lishi mumkin.

¹ Алламурастов А.Т. Свидетельские показания. //Ёш олимлар тўплами, -Т.: ТГЮИ, 2004. - С. 100.

Muayyan yuridik holatlardan xabardor shaxs guvoh tushunchasi nafaqat jinoyat, fuqarolik va xo'jalik protsessida, balki davlat va jamiyat faoliyatining boshqa sohalarida ham amal qiladi. Masalan, guvohlar muayyan malumot olish uchun mehnat stajini aniqlash komissiyaslari, hakamlik sudlari va boshqa organlarga chaqiriladi. Bunday guvohlar bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jinoyati tarkibining subektlari hisoblanmaydi, binobarin, ular yolg'on guvohlik berganlik uchun mazkur modda bo'yicha javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Bu guvohlarning protsessual guvohlardan asosiy farqi shundaki, ular sud yoki tergov va surishtiruv organlari tomonidan emas, balki boshqa organlar tomonidan, qonunda nazarda tutilgan ayrim hollarda esa - notariat tomonidan chaqiriladi.

Jinoyat protsessining boshqa bir ishtirokchisi shuningdek, fuqarolik protsessida taraflardan biri yoki uchinchi shaxs sifatida ishtirok etuvchi shaxs yolg'on guvohlik berish jinoyatining subekti - guvoh bo'la olmaydi.

Shunday qilib, yolg'on guvohlik berishning maxsus subekti - guvohning alomatlarining tahlil qilish asosida unga quyidagi tarifni berish mumkin.

Guvoh - vakolatli organ tomonidan chaqirilgan va ish uchun ahamiyatli holatlar yuzasidan so'roq qilingan, tergov qilinayotgan yoki ko'rilyotgan jinoyatga daxldor bo'lmagan, fuqarolik jarayonida esa - taraflardan biri yoki uchinchi shaxs bo'lmagan 16 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxsdir.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunida jinoyatdan jabr ko'rgan fuqarolarga jinoyat protsessida o'z manfaatlarini himoya qilish uchun imkoniyat berilgan.

Shaxs jabrlanuvchi deb topilishi uchun, ikki alomat; 1) jinoyat oqibatida shaxsga manaviy, jismoniy va mulkiy zarar etkazilgan bo'lishi lozimligi (bu obektiv mezon); 2) shaxs qonunda belgilangan tartibda jabrlanuvchi deb topilishi kerakligi (bu subektiv mezon) talab etiladi¹.

Binobarin, protsessual nuqtai nazardan, jabrlanuvchi obektiv va subektiv mezonlar (yoki mazmun va shakl) birligi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur mezon

¹Иноғомжонова З.Ф. Жиноят процесси иштирокчиларининг ҳуқуқ ва манфаатларининг кафолатлари. / Илмий-назарий анжуман материаллари. -Т.: ТДЮИ. -2003. -Б. 71-73

jinoyat oqibatida etkazilgan zararning mavjudligini taqozo etadi"¹.

Jabrlanuvchi, ish yakunidan manfaatdor va bu manoda ishga daxldor bo'lgani holda, tergov qilinayotgan yoki ko'rilayotgan jinoyat bilan bog'liq jinoiy qilmishlarni sodir etishga daxldor bo'lmasligi kerak.

Xo'sh, g'ayriqonuniy harakatlari natijasida jinoyat sodir etgan jabrlanuvchining ko'rsatuvlari qanday hollarda yolg'on guvohlik berish deb topilishi mumkin? Jabrlanuvchining o'z g'ayriqonuniy harakatlari haqidagi ko'rsatuvlari qilmishni kvalifikatsiya qilish, ayblanuvchining aybdorlik darajasini aniqlash va jazoni individuallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Jabrlanuvchining jinoyat hisoblanmaydigan o'z g'ayriqonuniy harakatlari to'g'risida yolg'on ko'rsatuv berishi jinoiy jazoga sazovor yolg'on guvohlik berish hisoblanadi. Ayni vaqtda jabrlanuvchi bazi bir hollarda jinoyatni sodir etgan shaxs ham hisoblanadi. Bunday holat zaruriy mudofaa chegaralaridan chetga chiqish to'g'risidagi jinoyat ishlarida ayniqsa, ko'p uchraydi.

Jinoyat qonuniga muvofiq jinoiy tajovuzni sodir etish vaqtida jabr ko'rgan shaxslar jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi. Agar jabrlanuvchining aybi "jinoiy jazoga sazovor qilmishni sodir etishdan iborat bo'lsa, uning o'ziga yoki mulkiga zarar etkazilganidan katiy nazar, u jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim"².

Bundan xulosa shuki, jinoiy qilmish sodir etgan "jabrlanuvchi" o'zini jinoyat sodir etganlikda fosh qilishi shart emas. Binobarin, u, hatto boshqa qilmishlar uchun muayyan asoslarga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lmasa ham, yolg'on ko'rsatuv berish uchun javobgar bo'lmaydi. Bunday "jabrlanuvchi"ning ko'rsatuvlarini ayblanuvchining harakatlariga tegishli ko'rsatuvlarga va uning o'z jinoiy harakatiga tegishli ko'rsatuvlarga ajratish mantiqqa ega emas, zero, u ko'rsatuvlar ham, bu ko'rsatuvlar ham bevosita bog'liq bo'lib, ularga ayblovdan himoyalaniish vositasi deb qaraladi.

Shunday qilib, jabrlanuvchi, agar u tergov qilinayotgan yoki ko'rilayotgan

¹ Рахманова С.М. Жабрланувчининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари. // Ж. Хаёт ва қонун. -2002. 7-сон. –Б. 39; Байков А.Д. Защита прав потерпевшего // Уголовный процесс. № 8 (20) 2006. - С. 60.

² Бояров С.А. Правовой положение потерпевшего //Уголовный процесс. № 7 (19) 2006. - С. 16.

jinoyat bilan bog'liq jinoiy qilmishni sodir etgan bo'lmasa, bila turib yolg'on ko'rsatuv berish jiioyatining subekti bo'lishi mumkin.

Rossiya Jinoyat-protsessual qonunida xususiy va xususiy-ommaviy ayblov ishlari bo'yicha jabrlanuvchi to'g'risidagi masala alohida diqqatga sazovordir. Bunday ishlar qatoriga qasddan badanga engil shikast etkazish, qiynash. aybni og'irlashtirmaydigan holatlarda nomusga tegish, jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiyy usulda qondirish, jazoni og'irlashtirmaydigan xolatlarda tuxmat qilish, haqorat qilish, qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish, raqobatchini obro'sizlantirish to'g'risidagi ishlar kiradi. Xususiy ayblov to'g'risidagi ishlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, bunday ishlar faqatgina jabrlanuvchining arizasiga binoan va faqat sud tomonidan ko'zg'atiladi. Jabrlanuvchi bilan ayblanuvchi yarashgan hollarda bunday ishlar tugatilishi lozim. Bundan tashqari, jabrlanuvchi ayblovni qo'llab-kuvvatlash huquqiga ega bo'ladi va dalillarni to'plash vazifasi ham uning bo'yniga tushadi. Xususiy-ommaviy ayblov ishlarida esa jabrlanuvchi bilan ayblanuvchi yarashganligi tufayli ish tugatilishi mumkin emas.

Xususiy ayblov ishlari bo'yicha jabrlanuvchi ayblov funktsiyasini bajarsada, u faqat xaqiqatni so'zlashdek huquqiy majburiyatdan ozod etilmaydi. Shu bois u yolg'on guvohlik berganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantiriladi. Shuning uchun ham, qonunga ko'ra, jabrlanuvchining ayblanuvchi bilan yarashishi, uni bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun javobgarlikdan ozod qilmaydi, chunki yarashganligi tufayli odil sudlovga qarshi jinoyat uchun javobgarlik bekor qilinmaydi.

Bunday hollarda shaxsning jabrlanuvchi tariqasidagi va ayblanuvchi tariqasidagi ko'rsatuvlari bir-biriga shundai bog'lanib ketadiki, himoya vositasi bo'lib ham, ayblov vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Shu bois jabrlanuvchi ayblanuvchilar bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun javobgar qilinishi lozim, deb o'ylaymiz.

Xususiy ayblov ishlari bo'yicha jabrlanuvchilar ham qarshi ayblov bo'lmagan hollarda, bila turib yolg'on ko'rsatuv berish subekti hisoblanadilar.

Jabrlanuvchi bila turib yolg'on ayb qo'ygani uchun yolg'on guvohlik berish to'g'risida emas, balki yolg'on xabar berish to'g'risidagi moddaga ko'ra javobgarlikka tortilishi lozimligi, yolg'on guvohlik haqida ogohlantirish o'z manosini yo'qotadi, degan manoni anglatmaydi, chunki mazkur ogohlantirish ushbu moddaga binoan ayblanuvchi foydasiga yolg'on ko'rsatuv berganlik uchun javobgarlikka tortish imkonini beradi¹. Lekin xususiy ayblovlari bo'yicha bunday yolg'on ko'rsatuv berish hollari juda kam uchraydi, chunki jabrlanuvchi, ayblanuvchini javobgarlikka tortishni istamagan takdirda, u bilan yarashishi mumkin bo'lib, bu jinoyat ishini tugatish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Dastlabki tergovda yoki sudda o'zini yolg'ondan jabrlanuvchi qilib ko'rsatgan shaxslarni ham yolg'on guvohlik berish to'g'risidagi moddaga binoan javobgarlikka tortish lozim deb o'ylaymiz. Chunki o'zini yolg'ondan jabrlanuvchi qilib ko'rsatgan shaxs yanglish tarzda jabrlanuvchi deb topilishi natijasida bila turib yolg'on ko'rsatuv beradi.

Pirovard natijada bila turib yolg'on ko'rsatuv berganlik subekti - jabrlanuvchi deganda qonun bilan ko'riqlanuvchi manfaatlariga bevosita tajovuz qilingan, vakolatli organlar tomonidan jabrlanuvchi deb topilgan shaxslar tushuniladi.

Bila turib yolg'on xulosa berganlikning subekti - ekspert sud-tergov organlari tomonidan fan, texnika, sanat yoki muayyan kasb sohasida maxsus bilim va ko'nikmalarni taqozo etuvchi masalalar yuzasidan xulosa berish uchun tayinlangan va tergov qilayotgan yoki sudda ko'rilayotgan jinoyatga daxldor bo'lmagan shaxsdir.

Protsessual qonunlar xulosa berish uchun zarur bilimga ega bo'lgan, ishning yakunidan manfaatdor bo'lmagan shaxslar ekspert sifatida ishtirok etishini taqozo etadi². Lekin zarur bilimga egalik hamda ish yakunidan manfaatdorlik alomatlari ekspertning jinoyatning maxsus subekti sifatidagi alomatlarini ko'rsatmaydi. Shu

¹ Бояров С.А. Прямой порядок потерпевшего // Уголовный процесс. № 7 (19) 2006. - С. 16

² Суяров Қ., Анваров И. Эксперт хулосаси ва унинг жиноятни очиш ва олдини олишдаги аҳамияти. Илмий-амалий анжуман материаллари. -Т.: ТДЮИ, 2002. - Б. 30-31

bois ishning muayyan tarzda hal bo'lishidan ekspertning manfaatdorligi, shuningdek, uning zarur bilimga ega emasligi bila turib yolg'on xulosa berganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish mumkinligini istisno etmaydi.

Jinoyat va fuqarolik protsessida ekspert mansabdor shaxs huquqlaridan foydalanmaydi, shu bois u o'zining jinoyatkorona beparvoligi natijasida yolg'on xulosa berganligi uchun mansabdorlik jinoyatlari to'g'risidagi moddalar bo'yicha javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Ekspert o'zining protsessdagi ishtiroki xususiyatiga ko'ra, yani davlat organi nomidan emas, balki shaxsan o'z nomidan ishtirok etishi tufayli, shuningdek ekspert protsessda tashkiliy-buyruq yoki mamuriy-xo'jalik huquqlariga ega emasligi tufayli uchun mansabdor shaxs, deb etirof etilishi mumkin emas.

Protsessual holati O'zR JPK 69-moddasi bilan tartibga solinuvchi mutaxassisni ekspertdan farqlash zarur. Mutaxassis bilan ekspertning umumiy jihati shundan iboratki, ular maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari hamda ish yakunidan manfaatdor bo'lmasliklari kerak. Ammo mutaxassis ekspertdan ikki jihati bilan farq qiladi. Birinchidan, tayinlash belgisiga ko'ra: mutaxassis aynan mutaxassis qilib tayinlanadi. Ikkinchidan, faoliyat xususiyatiga ko'ra: agar mutaxassis dalillarni topish, mustahkamlash va olib ko'yishda tergovchiga ko'maklashsa, ekspert yig'ilgan dalillar bilan ishlaydi va uning faoliyati natijasi faqat xulosa bo'lishi mumkin.

Shaxsning ishda mutaxassis sifatida ishtirok etishi uning ekspert sifatida ishni davom ettirish imkoniyatini bekor etadi, murdani ko'zdan kechirishda sud tibbiyot ekspertizasi xodimi ishtirok etgan holatlar bundan mustasno.

O'zR JPK 71-moddasiga binoan, quyidagi hollarda: 1) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki jabrlanuvchi, fuqaroviy davogar, fuqaroviy javobgar yoxud ularning vakillari, guvoh, ekspert, mutaxassis ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki etarli darajada bilmasa yoki kar yoki soqov bo'lsa; 2) biror matnni boshqa tildai tarjima qilishga zarurat bo'lsa tarjimon chaqiriladi. Bundan tashqari tarjimonga tegishli qoidalar ish yuritishda ishtirok etish uchun taklif qilingan, kar yoki soqovning imo-ishoralarini tushunadigan shaxsga ham taaalluqli.

İsh yakunidan manfaatdorlik hamda tilni bilmaslik, O'zR JPK 72-moddasiga asosan, tarjimonni rad etish uchun asos bo'ladi.

Lekin ishdan manfaatdor bo'lgan yoki ishga layoqatsiz bo'lgan shaxs tomonidan qasddan noto'g'ri tarjima qilingan bo'lsa, aybdor JK 238-moddasi bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Himoyachi ham protsessual hujjatlar, arizalar va ko'rsatuvlarni tarjima qilish uchun tarjimon taklif qilishi mumkin, lekin himoyachi tomonidan taklif qilingan shaxs protsessual makomini egallashi mumkin emas, shu bois bunday tarjimon noto'g'ri tarjima qilganlik uchun jinoiy javobgar bo'lmaydi.

O'zi tarjimon tariqasida ishtirok etayotgan ishdagi jinoyatga daxlsizlik to'g'risidagi qoida tarjimonga nisbatan ham amal qiladi. Agar jinoyatga daxldor shaxs ishda tarjimon tariqasida ishtirok etgan va noto'g'ri tarjima qilgan bo'lsa, u buning uchun jinoiy javobgar bo'lishi mumkin emas¹.

Shunday qilib, JK 238-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning subekti - tarjimon deganda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish yoki kar yo soqov belgilarini tushuntirish uchun sud-tergov organlari tomonidan tarjimon etib tayinlangan shaxs tushuniladi.

Fikrimizcha, Respublikamiz JKning 238-moddasini 4-qism bilan to'ldirib, guvoh, jabrlanuvchi, ekspert, tarjimonlarni javobgarlikdan ozod etish masalasi ham qo'yilishi lozim. Biz bu borada Z.X.Gulyamovning O'zR JKning 238-moddasini quyidagi mazmundagi qism bilan to'ldirish to'g'risidagi taklifini qo'llab quvvatlaymiz:

"O'ziga yoki yaqin qarindoshlariga nisbatan jinsmoniy yoki ruhiy tayziq natijasida yolg'on guvohlik berishga majbur bo'lgan shaxslar o'z harakatlaridan afsuslanib vijdonan bu hakda xabar bersa jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi"².

O'zR JKning 238-moddasiga ushbu qoidaning kiritilishi insonparvarlik tamoyiliga mos bo'lib, jinoyatdan ixtiyoriy qaytganda javobgarlikdan ozod etish

¹ Никулина Х.А., Горбунова Н.А. Участники уголовного процесса с неопределенным положением // Уголовный процесс № 7 (19) 2006. – С. 19-27.

² Гулямов.З.Х. Преступления против правосудия. Т. 1997. – С.167.

masalasini yoritib beradi. Bunda javobgarlikdan ozod etishning ikki sharti bajarilishi lozim:

1) ilgari yolg'on ko'rsatuv, xulosa, noto'g'ri tarjima berilganligi haqida ixtiyoriy arz qilinishi, yani shaxs o'z tashabbusi bilan, boshqa birovlarining majburlovisiz, yolg'on odil sudlov organlariga malum bo'lishidan oldin amalga oshirilishi lozim;

2) ushbu ariza hukm yoki qaror chiqarilgunga qadar berilishi kerak.

2.4. Yolg'on guvohlikning subektiv tomoni

Sud-tergov organlariga bila turib yolg'on ko'rsatuv berish, ekspertning noto'g'ri xulosa berishi hamda noto'g'ri tarjima qilishga nisbatan shaxsning ruhiy munosabatini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Faqat qonunda talab etilgan ayb shakli aniqlangan takdirda sodir etilgan qilmishda jinoyat tarkibi hamda jinoiy javobgarlik uchun asos mavjud, dsb topilishi mumkin.

JK 20-moddasidagi ayb shakllarining tarifi ijtimoiy xavfli qilmish va ijtimoiy xavfli oqibatlariga shaxsning ruhiy munosabatini tavsiflaydi. Lekin yolg'on guvohlik berish formal tarkibli jinoyatlar guruhiga mansub bo'lib, ularning obektiv tomoniga ijtimoiy xavfli oqibatlar kirmaydi.

Shu bois mazkur jinoyatda ayb shakli mumkin bo'lgan yoki sodir bo'lgan oqibatlariga shaxsning ruhiy munosabatiga bog'liqligi yoki faqat ijtimoiy qilmishga nisbatan ruhiy munosabatni aniqlashning o'zi etarli? degan savol tug'iladi. Bu masala yuzasidan olimlar ikkita qarama-qarshi fikr bildirganlar. Ayrim olimlar formal tarkibli jinoyatlarda ayb shakli shaxsning qilmishga ruhiy munosabati bilai belgilanadi, bunda qilmishning oqibatlariga munosabat ahamiyatsiz degan xulosaga keldilar¹. Boshqa olimlarning fikricha, har bir jinoyat tarkibida ayb shakli

¹ Бакунов П, Айб жиноят субъектни томонининг зарурий белгиси сифатида. Т. "Адолат" 2006. – Б.99; Рапог А.И. Проблемы субъективной стироны преступления. М.: МЮИ, 1991.

qilmishga va uning oqibatlariga nisbatan ruhiy munosabatidan tarkib topadi¹.

Fikrimizcha, birinchi qarash to'g'riroq va ishonchliroqdir, chunki aybning shakli sifat jihatidan aniq bo'lishi kerak, bu esa faqat qonun chiqaruvchi tomonidan tariflangan jinoyat tarkibi alomatlariga nisbatan ruhiy munosabat bilan belgilanadi. Ikkinchi qarash esa, barcha jinoyat tarkiblari moddiydir, degan manoni anglatadi, vaholanki, bu qonunga ziddir yoki bo'lmasa, aybning shakli muayyan jyanoyat tarkibini emas, balki amalda sodir etilgan jinoyatni to'liq tavsiflaydi, degan manoni anglatadiki, bu ham o'rinli emas, chunki bunday qarashda aybning shakli o'zining sifat jihatidan aniqligini yo'qotadi.

Bila turib yolg'on ko'rsatuv berishda aybning shakli uning zaruriy alomatlari - jinoyat obekti, ijtimoiy xavfli qilmish va jinoyat subektiga nisbatan ruhiy munoabat bilan tavsiflanadi.

Formal tarkibli jinoyatlarda aybning shakli shaxsning jinoiy harakat yoki harakatsizligiga nisbatan ruhiy munosabati bilan belgilanishini aniqlagach, mazkur tarkiblardagi qasdning mazmunini ko'rib chiqish zarur, deb o'ylaymiz. Olimlarning bu masala yuzasidan fikrlari ham bir xil emas. Formal tarkibli jinoyatlarda qasd va ehtiyotsizlikning mazmuniga tafakkuriy va irodaviy holatlar kiradi², degan qarash nisbatan keng tarqalgan. Bu demak, qasdning to'g'ri va egriga, extiyotsizlikning esa - jinoiy beparvolik va o'z-o'ziga ishonishga bo'linishi mazkur toifaga mansub tarkiblar uchun o'z ahamiyatini saqlab qoladi, ammo bunda irodaviy holat oqibatdan harakat yoki harakatsizlikning o'ziga ko'chiriladi. Bunga asosan, ko'pgina formal tarkibli jinoyatlar, shu jumladan, yolg'on guvohlikning ham subektiv tomoni qilmishning ijtimoiy xavfliligini tushunish, bunday xavfni oldindan ko'rish va bunday qilmishlar sodir etishni istash yoki ularga yo'l ko'yish tarzida tavsiflanadi.

¹ Говрилов С.Т., Покаместов А.В., Тямкин А.В. Проблемы квалификации отдельных видов преступлений Воронеж. ВШ МВД 1997. - С. 49; Гаухман ЛД. Квалификация преступлений: закон, теория, практика. Юринформ. 2001. - С. 115.

² Костарева Т.А. Квалифицирующие обстоятельства в уголовном праве. Москва. Юристь. 1993. - С. 112; Ларин А.М. Преступность и раскрываемость преступлений // Государство и право. - 1999. № 4. - С. 83-89; Гаврилов С.Т., Покаместов А.Е., Тямкин А.В. Проблемы квалификации отдельных видов преступлений. Воронеж. ВШ МВД 1997. - С. 34.

Avvalambor shuni qayd etish kerakki, sud-tergov organlarini adashtirishga yolg'on guvohlik berishning natijasi deb qarash asossizdir, chunki adashtirish har qanday yolg'onning ajralmas xossasi, ichki sifatidir. Binobarin, shaxs sudga, tergov va surishtiruv organlariga yolg'on ko'rsatuv berayotganini tushunar ekan, yolg'on adashtirish xossasiga ega ekanligini ham tushunadi. Agar guvoh yolg'on ko'rsatuv berish jarayonida o'z ko'rsatuvlari yolg'on ekanligini va u shunchaki ko'ngilxushlik uchun yolg'on gapirayotganini tan olsa, bunday yolg'on ijtimoiy xavf tug'dirmaydi, chunki hech kimni adashtira yoki chalg'ita olmaydi va hazil yoki behurmatlik, deb qabul qilinadi.

Demak, aldash, adashtirish, chalg'itish yolg'on guvohlik berishning ijtimoiy xavfli oqibatlari deb topilishi mumkin emas. Shu bois agar guvoh odil sudlov organiga yolg'on malumot berayotganini tushunsa, bu bilan u mazkur organlarni aldash, adashtirishni istaydi, yolg'onning mazkur ijtimoiy xossasini tushunadi. Bu xossa, yuqorida qayd etib o'tganimizdek, qilmish - yolg'on ko'rsatuv berishning zarur ijtimoiy jihati hisoblanadi.

Shunday qilib, shaxsni aldash, adashtirishni xohlashi to'g'risida so'z yuritish - tautologiya, yani takrordir. Boshqacha qilib aytganda, shaxs bildirayotgan malumotlari yolg'onligini, demak, sodir etayotgan qilmishini ijtimoiy xavfli ekanligini ham tushunadi.

Shu bois formal tarkibli jinoyatlarda aybning shaklini aniqlash uchun tafakkuriy xolatni, uning faqat qilmishning ijtimoiy xavfli ekanligini tushungan yoki tushunmaganligini aniqlash kifoya, deb hisoblovchi olimlarning qarashlari asosliroqdir¹. Fikrimizcha, formal tarkibli jinoyatni hosil qiluvchi harakat yoki harakatsizlikning irodaviy holatini, yani qilmishni sodir etish istagini aniqlashning hojati yo'q. Darhaqiqat, ijtimoiy xavfli qilmishni ongli ravishda sodir etgan shaxs uni sodir etishni istamasligini tasavvur etish qiyin. Boshqa tomondan, agar shaxs o'zi sodir etayotgan qilmishning ijtimoiy xavfli ekanligini tushungan bo'lsa, bu formal tarkibli jinoyatda egri qasd mavjudligini inkor etadi. Binobarin, agar shaxs

¹ Алоуов Е.О. Квалификация хищений совершенных по подложным документам. - Т., Адолат, 1994. - С. 119; Бакунов П. Айб жиноят субъектив томонининг зарурий белгиси сифатида. Т. «Адолат». - 2006. - Б. 29.

o'zi sodir etayotgan qilmishning ijtimoiy xavfli ekanligini taxmin qilsa, u mazkur qilmishni ehtiyotsizlik orqasida sodir etadi, agar shaxs o'z qilmishi ijtimoiy xavfli ekanligini tushunsa va uni sodir etishni xohlasa, qasddan harakat qiladi.

Demak, formal tarkibli jinoyatlar faqat to'g'ri qasd yoki jinoyatkorona beparvolik shaklidagi ayb bilan tavsiflanadi. Yolg'on guvohlik berish ham faqat to'g'ri qasd bilan sodir etilishi mumkin, bunda ehtiyotsizlik bo'lishi mumkin emas, chunki O'zR JK 238-moddasi dispozitsiyasida sanab o'tilgan subektlar bila turib yolg'on ko'rsatuv yoki xulosa berishi yoxud noto'g'ri tarjima qilishi ko'rsatib o'tilgan.

Xullas, yolg'on guvohlik berishning subektiv tomoni, umuman olganda, to'g'ri qasd shaklidagi ayb bilan tavsiflanadi. Uning mazmuniga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Bila turib yolg'on ko'rsatuv berishga to'g'ri qasd qilishning mazmuniga shaxsning quyidagi holatlar: 1) o'zi berayotgan malumotlarning yolg'onligini; 2) tergov qilinayotgan yoki ko'rib chiqilayotgan ish uchun ularning ahamiyatini; 3) jinoyat holatini, yani qilmishning vakolatli organlar oldida sodir etilayotganini; 4) shaxsni maxsus subekt sifatida tavsiflovchi alomatlarni tushunishi kiradi. Shu bois shaxsning aybini aniqlash uchun u yuqorida zikr etilgan barcha holatlarni tushunganligi aniqlanishi zarur.

Bu o'rinda "bila turib" atamasining mazmuniga ham aniqlik kiritish lozim. Mazkur atama O'zR JK 238-moddasining dispozitsiyasida ushbu jinoyat obektiv tomonining alomatlaridan biriga - berilayotgan malumotlar yolg'onligining tushunilishiga taalluqli, binobarin, to'g'ri qasd bilan bir xil manoga ega emas. Bunda jinoyatning muayyan tarkibida qilmishni bila turib sodir etish xar doim tarkibning u taalluqli bo'lgan alomatlariga nisbatan qasdning tafakkuriy holatini belgilaydi. Qilmish bila turib sodir etilganiga ishora mazkur atama shaxsning ko'rsatuv holatni to'g'ri va shak-shubxasiz bilishini anglatadi.

Ayni vaqtda, subekt "formal" tarkibli jinoyatning boshqa alomatlarini ham "bila turib" atamasi ishora qiluvchi holatlar bilan bir xil darajada tushunishi lozim¹.

¹ Горелик А.О., Лобанова В.Л. Преступления против правосудия. СПб, 2005. - С. 67.

Faqat shu manoda qonunda qilmish "bila turib" sodir etilganining ko'rsatilishi shaxs muayyan holatni jinoyatni sodir etganidan keyin emas, balki uni sodir etishdan oldin yoki sodir etish vaqtida tushunishi lozimligiga urg'u beradi.

"Bila turib" atamasi qonunda ijtimoiy xavfli qilmishning jinoiy jazoga loyiq qilmish negizi - "skeleti"ni tashkil etuvchi, harakat yoki xarakatsizlikning mazmunini belgilovchi alomatlariga taalluqlidir. Yolg'on guvohlik berishda berilgan malumotlarniig yolg'onligi mana shunday asos bo'lib hisoblanadi. Buni jinoyat subekti yolg'on ko'rsatuv yoki xulosa berish, notg'ri tarjima qilishdan oldin yoxud bu harakatlarni sodir etish vaqtida to'g'ri, shak-shubhasiz tushunishi lozim.

Yolg'on guvohlik berishda to'g'ri qasd mazmuni berilayotgan malumotlarning yolg'onligini aniq bilish bilangina cheklanmasligini biz yuqorida qayd etib o'tdik. Bundan tashqari, shaxs berilayotgan malumotlarning xususiyatini, chunonchi, ular ish uchun ahamiyatli ekanligini, yani ish bo'yicha dalillar manbai bo'lib xizmat qilishi mumkinligini ham tushunishi lozim. Qasd mazmuniga yolg'on malumotlar qanday vaziyatda berilayotganini, yani qilmish tergov va sud harakatlarini amalga oshirishga vakolatli davlat organlari xodimlari qarshisida sodir etilayotganini tushunish ham kirishi kerak. Agar shaxs jinoyatni sodir etishidan oldin yoki sodir etish vaqtida, bularni tushungan bo'lmasa, jinoyat to'g'ri qasd bilan sodir etilgan bo'lmaydi.

Bizning nazarimizda, mazkur holatlarning aniqlanishi jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish uchun etarli emas, chunki yolg'on ko'rsatuv berayotgan ayblanuvchi bu ko'rsatuvlar odil sudlov manfaatlari uchun ijtimoiy zararli xususiyatga ega ekanligini tushunadi. Subektni yolg'on guvohlik berishda aybdor deb topish uchun u qilmishni sodir etishdan oldin yoki sodir etish vaqtida shaxsni jinoyatning maxsus subekti sifatida tavsiflovchi bazi bir alomatlarni tushunganligini aniqlash zarur. Fuqarolik protsessida buning uchun shaxs o'zi guvoh tariqasida so'roq qilinayotganligini tushunishi kifoya, jinoyat protsessida esa, bundan tashqari, shaxs ko'rsatuvlarni u tergov qilinayotgan yoki ko'rib chiqilayotgan ishning sodir etilishiga daxlsiz shaxs sifatida berayotganini ham tushunish lozim. Bu qoida yolg'on guvohlik berish-boshqa subektlariga ham

taalluqli. Chunonchi, ekspert tarjimon ular bu vazifa sud-tergov organlari tomonidan tayinlanganini, jinoyat protsessida esa, ular tergov kilinayotgan yoki ko'rib chiqilayotgan ishning sodir etilishiga daxlsiz ekanligini ham tushunishi lozim.

To'g'ri qasd mavjud bo'lishi uchun yuqorida zikr etilgan barcha alomatlar, berilayotgan malumotlarning yolg'onliga kabi mujmal va taxminiy emas, balki aniq va qat'iy tushunilishi kerak. Aks holda, sodir etilgan qilmishni qasddan sodir etilgan, deb bo'lmaydi. Qilmishning ijtimoiy xavfliligini taxmin qilish qasdga emas, balki ehtiyotsizlikka xosdir.

Shu bois bila turib yolg'on ko'rsatuv berish, xulosa berish, noto'g'ri tarjima qilishni adashish, uzrli va hatto uzrsiz xato qilish natijasida yo'l ko'yilgan yolg'on ko'rsatuv berish, xulosa berish hamda tarjima qilishdan farqlash lozim.

Yolg'on guvohlik berishda aybni shaklini to'g'ri aniqlash uchun jinoyatning motiv va maqsadini aniqlash ham juda muhim ahamiyatga ega. Jinoyatning motiv va maqsadi bila turib yolg'on ko'rsatuv berishning zaruriy alomatlari hisoblanmaydi. Ammo, shunga qaramay motiv va maqsad qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini baholash, yolg'on guvohlik berishda aybdor shaxslarni tavsiflash va unga nisbatan odilona jazo tayinlashda muhim rol o'ynaydi.

I - bob bo'yicha xulosa

Yolg'on ko'rsatuvlar mazmunini yolg'on tashkil etadi. Yolg'on deyilganda, subektning ongidagi obektiv haqiqatga zid bo'lgan tushunchani tasdiqlashi, yohud fikr bildirishi, yani ongli ravishda xato malumot berish tushuniladi. Biroq har qanday yolg'on ham yolg'on guvohlik berish jinoyati tarkibini hosil qilmaydi. Faqatgina alohida ish bo'yicha ahamiyatga ega bo'lgan holatlar yuzasidan sud-tergov organlariga aytilgan yolg'on, yani isbotlanishi lozim bo'lgan xolatlar hamda qonunda dalil sifatida foydalanish taqiqlanmagan faktlarga taalluqli bo'lgan yolg'ongina ushbu jinoyat tarkibini hosil qiladi.

Yolg'on guvohlik berishning obektini belgilashda bevosita O'zR JK 238-moddasi dispozitsiyasidan kelib chiqish lozim, ushbu moddaning 1-qismi bo'yicha obekt bu - odil sudlov (sud) va uni amalga oshirishga ko'maklashuvchi (prokuratura, dastlabki tergov va surishtiruv) organlarning normal faoliyati bo'lsa, 2-qismi bo'yicha obekt bu - jabrlanuvchi, guvoh, ekspert, tarjimon, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari (JK 8-bo'limiga muvofiq: qarindoshlar yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, yani ota-ona, aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, nevaralar shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-uka va opa-singillari)ning sog'lig'i hisoblanadi.

Yolg'on guvohlik berish "formal" tarkibli jinoyatlar sirasiga kiradi, yani ularni kvalifikatsiya qilishda zararli oqibatlarining ro'y berganligi talab qilinmaydi. U yoki bu jinoyat tarkibining "formal" shakli jinoyatning ijtimoiy xavfliligi darajasiga baho berishga hech qanday tasir ko'rsatmaydi.

O'zR JK 238-moddasi birinchi qismida faqat guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar va tarjimonlar yolg'on guvohlik berish jinoyatining subektlari bo'lishi mumkinligi belgilab ko'yilgan. Jinoyat va fuqarolik protsesslarida guvoh, jabrlanuvchi, ekspert yoki tarjimon sifatida ishtirok etmaydigan boshqa shaxslar mazkur moddaga binoan bajaruvchi sifatida javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Binobarin, bu shaxslar JK 238-moddasi birinchi qismida javobgarlik belgilangan jinoyatning maxsus subektlari hisoblanadi va shu bois, ular umumiy alomatlar (16 yoshga to'lgan akli raso jismoniy shaxslar)dan tashqari, o'z kasbiy

faoliyatining turiga mos keluvchi maxsus alomatlarga ega bo'lishi talab qilinadi. Bu alomatlar jinoyat-protsessual va fuqarolik-protsessual qonun hujjatlarida ochib berilgan.

Guvoh - yolg'on guvohlik berish jinoyatining asosiy subektlaridan biri bo'lib, O'zR JPK 65-moddasiga muvofiq, guvoh - jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan biror holat yuzasidan ko'rsatuv berish uchun chaqirilgan shaxs. Ammo mazkur tarif guvohning yolg'on guvohlik berish subekti sifatidagi bir qancha muhim, yani guvohlarni bila turib yolg'on ko'rsatuv berish subekti hisoblanmagan shaxslardan farqlash imkonini beruvchi alomatlarini o'zida aks ettirmaydi.

Yolg'on guvohlik berishning subektiv tomoni, umuman olganda, to'g'ri qasd shaklidagi ayb bilan tavsiflanadi. Uning mazmuniga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Bila turib yolg'on ko'rsatuv berishga to'g'ri qasd qilishning mazmuniga shaxsning quyidagi holatlar: 1) o'zi berayotgan malumotlarning yolg'onligini; 2) tergov qilinayotgan yoki ko'rib chiqilayotgan ish uchun ularning ahamiyatini; 3) jinoyat holatini, yani qilmishning vakolatli organlar oldida sodir etilayotganini; 4) shaxsni maxsus subekt sifatida tavsiflovchi alomatlarni tushunishi kiradi. Shu bois shaxsning aybini aniqlash uchun u yuqorida zikr etilgan barcha holatlarni tushunganligi aniqlanishi zarur.

II-BOB. YOLG'ON GUVOHLIKNING KRIMINOLIGIK JIXATLARI

2.1 Yolg'on guvohlik berishning kriminologik tavsifi

Jinoyatning kriminologik tavsifi muayyan jinoyat turi haqidagi ma'lumotlar majmuidan tarkib topadi. Bu ma'lumotlardan jinoyatning oldini olish maqsadida foydalaniladi.

Odil sudlovga qarshi jinoyatlar ichida yolg'on guvohlik berish to'g'risidagi ishlar ko'pchilikni tashkil etadi. Tadqiqot olib borilgan yillarda pora evaziga ko'rsatuv berish, noto'g'ri tarjima qilishga og'dirish yoki majburlaganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha ishlar kuzatilmadi. Bu ushbu jinoyatlarning umuman sodir etilmasligigdan dalolat bermaydi, ammo bunday tazyiqqa uchragan shaxslarning odil sudlov organlariga bu haqda xabar bermasliklari mazkur jinoyatlarning latentlik darajasi yuqoriligicha qolishiga sabab bo'lmoqda. Jabrlanuvchi va guvohlarga tazyiq o'tkazish asosan uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilishi, jabrlanuvchilar yoki guvohlarning o'ch olinishdan qo'rqishini hisobga oladigan bo'lsak, mazkur jinoyatlarning latentligi darajasi yuqoriligining sabablari oydinlashadi.

Respublikamizda aniqlangan yolg'on guvohlik berish jinoyatlarining tahlili mazkur jinoyat dinamikasida keskin o'zgarishlar mavjudligini, buni hech qanday obyektiv omillar bilan tushuntirib bo'lmasligini ko'rsatadi. Tadqiqotimiz jarayonida olingan ma'lumotlarni boshqa tadqiqot va tahlillarning materiallariga taqqoslash yolg'on guvohlik berish dinamikasidagi bunday sakrashlar mazkur jinoyat uchun qonuniy ekanligidan va guvohlikka berishga nisbatan sudyalari, surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari asosan subyektiv yondoshishi bilan izohlanihsidan dalolat beradi. Shu narsa diqqatga sazovorki, rasmiy organlar hech qachon yolg'on guvohlik berishga qarshi kurashni kuchaytirishni talab qilmaganlar.

Yolg'on guvohlik berishni ba'zi huquqshunoslar ancha kam uchraydigan jinoyat deb hisoblashadi. Ammo, biz tomonimizdan o'rganilgan ishlarda yolg'on guvohlik berish hollari ancha ko'p uchraydi, ayniqsa, dastlabki tergovda va sudda

berilgan ko'rsatuvlar orasida farq qiluvchi holatlar ko'pchilikni tashkil etadi, biroq ular ishning oqibatiga jiddiy ta'sir qilmaganligi sababli sudlar tarafidan ushbu holatlar bo'yicha jinoyat ishlari qo'zg'atish hollari kam uchraydi.

Sudyalar, tergovchilar va prokurorlar orasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, yolg'on guvohlik berishning latentlik darajasi 50%ni, fuqarolik ishlari bo'yicha esa- 90%ni tashkil etadi.

Boshqa tahskilotlarning materiallari ham yolg'on guvohlik berishning keng tarqalganligidan dalolat beradi. Sudyalar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, jami holatlarning 24,8% da guvohlar yoki jabrlanuvchilar bila turib yolg'on ko'rsatuv berganligini e'tiborga olishmagan yoki unga jiddiy e'tibor qaratishmagan.

Dastlabki tergov organlari va sudyalar yolg'on guvohlik berish hollariga nisbatan jiddiy e'tibor qaratmaganligining sabablari sifatida ularning ortiqcha ish uchun vaqti yo'qligi, nazkur jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasining pastligi, ko'pincha ushbu jinoyatlar amnistiya akti asosida ish yuritilishidan to'xtatilishi kabi omillarni ko'rsatishgan. Respublikamizda yolg'on guvohlik berish bilan bog'liq jinoyatlarning 41,6% amnistiya akti qo'llanib, ayblilik masalasi hal etilmasdan sud ajrimi bilan ish yurituvdan to'xtatilganligi ham bundan dalolat beradi¹.

S.A.Navikov huquqni muxofaza qilish organlarining yolg'on guvohlik berish hollariga nisbatan jiddiy e'tibor qaratmasligiga sabab sifatida, mazkur jinoyat uchun jazoning haddan tashqari yengilligini ko'rsatadi².

Bila turib yolg'on ko'rsatuv berish bilan bog'liq holatlarning 89,5% da yolg'on ko'rsatuvlar oldindan tayyorlangani aniqlandi. Bu holatlarning 84,7% da yolg'on ko'rsatuvlarni aybdorlarning o'zi, 5,1% da – manfaatdor shaxslar tayyorlagan, 10,2%da yolg'on ko'rsatuv berish niyati qo'qqisidan, xususan, so'roq jarayonida tug'ilgan. Ko'pincha (jami holatlarning 67,7% da) yolg'on guvohlik

¹ Тошпўлатов А. Ёлгон гувоҳликнинг жиноят ҳуқуқий ва криминалогик жиҳатлари. – Тошкент. – 2009. – Б. 97-98.

² Новиков С.А. Наказание за лжесвидетельство: дискуссионные вопросы. Российский следователь. №5. 2006. – С. 10-12.

beruvchilar dastlabki tergov jarayonida berilgan ko'rsatuvlarni sud majlisida o'zgartirganlar.

Yolg'on guvohlik berganlar orasida xotin-qizlar foizi yuqoriligini barcha tadqiqotchilar qayd etganlar. Yolg'on guvohlik berganlar orasida xotin-qizlar A.A.Zakatov ma'lumotiga ko'ra – 43,6%ni, A.Ratinov va Yu.Adamov ma'lumotiga ko'rsa - 35,4% ni tashkil etadi¹.

Respublikada yolg'on guvohlik berganligi uchun javobgarlikka tortilganlar yoshiga qarab quyidagicha tavsiflanadi: voyaga yetmaganlar (16-18)- 0%; 18-25 yoshlilar- 30%; 25-30 yoshlilar- 8%; 30-35 yoshlilar- 16%; 40 yoshdan kattalar 46%. Yolg'on guvohlik berganlar orasida ilgari boshqa jinoyat sodir qilganligi uchun sudlanganlar 41,6% ni tashkil etadi, shundan ilgari bir marta sudlanganlar 8,3%ni, ilgari ikki marta sudlanganlar 33,3% ni tashkil etadi. Ilgari sudlanganlik jinsga qarab quyidagicha taqsimlanadi: erkaklar-75%ni, ayollar-25%.

Yolg'on guvohlik berganlar orasida guvohlar va jabrlanuvchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Yolg'on guvohlik berish subyektlari sifatida jabrlanuvchilar -16%ni, guvohlar 70%ni, ekspertlar 14%ni tashkil qildi. Tarjimonning yolg'on guvohlik berishga doir jinoyat ishlari aniqlanmadi. Yolg'on guvohlik berishga doir ishlarni 8% ishtirokchilikda amalga oshirilgan.

Yolg'on guvohlik berish subyektlari ijtimoiy holatiga ko'ra quyidagicha taqsimlanadilar: ishchilar-16%, xizmatchilar-25%, vaqtincha ishsizlar-50%, mahkumlar - 9%.

Yolg'on guvohlik berishning motivi o'rganilganida mazkur jinoyat ko'proq aybdorlarni oqlash yoki ularning javobgarligini yengillashtirish maqsadida sodir etilishi aniqlandi. O'rganilgan ishlarning 33,3% da ayblov mazmunidagi ko'rsatuvlar, 66,6% da oqlov mazmunidagi ko'rsatuvlar berilgan².

¹ Закатов А.А. Ложь по борьбе с нею. Волгоград. – 1984. – С. 51.

² Тошпўлатов А. Ёлгон гувоҳликнинг жиноят ҳуқуқий ва криминалогик жиҳатлари. – Тошкент. – 2009. – Б. 100-101.

Yolg'on guvohlik berishning kriminologik tavsifi ilmishning ijtimoiy xavfliligi, uning odil sudlov uchun xavfliligi va mazkur jinoyatni sodir etuvchi shaxslarning xususiyatlari o'rtasida jiddiy farq mavjudligini ko'rsatadi.

2.2. Yolg'on guvohlik berishning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar

Kriminologiyada jinoyatchilik sabablari haqidagi 1) sotsiologik, 2) ijtimoiy, 3) psixologik, 4) psixologik va ijtimoiy-biologik nazariyalar mavjud.

Sotsiologik nazariyalarning vakillari jinoyatchilikni ongli hodisalar bilan bog'liq bo'lmagan ijtimoiy-iqtisodiy sabablar vujudga keltiradi deb hisoblaydilar. Bunda ayrim tadqiqotchilar (V.C.Afanasev, Ya.I.Galinskiy) bu sabablarni faqat jinoyatchilikning umumiy sabablariga, boshqa tadqiqotchilar V.A.Nomokonov, E.E.Raska) esa sababiy bog'lanishning barcha darajalariga: butun jinoyatchilikka, jinoyatlarning guruhlari va turlariga, muayyan jinoyatlarga tatbiq etadi.

Bunda jinoyatchilikning asosiy sababini ayrim olimlar (P.P.Osinov) ishlab chiqarish kuchlari darajasi uncha yuqori emasligi, deb ko'rsatsalar, boshqa olimlar noantagonistik qarama-qarshiliklarning salbiy ko'rinishlarida (S.S.Sidorov) moddiy va boshqa tarzdagi ijtimoiy tengsizlikda (V.V.Orexov) deb hisoblaydilar.

Ijtimoiy-psixologik yo'nalish vakillari jinoyatchilik, shu jumladan, muayyan jinoyatlarning sabablarini ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong bilan bog'liq ijtimoiy va psixologik omillar bilan tushuntiradi (M.M.Babaev, A.I.Dolgova, K.E.Igoshev va b.)

Jinoyatchilik sabablarini tushuntirishning psixologik yo'nalishlariga V.V.Voljenkin, P.I.Grishaev, A.P.Ratinov va N.A.Struchkovlarning ilmiy ishlarida e'tibor berilgan. Agar o'tgan asrning 50-60-yillarida chop etilgan adabiyotlarda o'tmish sarqitlariga ayrim shaxslarning real muhitda asosga ega bo'lmagan ma'naviy-psixologik nuqsonlari deb qaralgan bo'lsa, hozirda ular obyektiv va subyektiv xususiyatga ega bo'lgan ma'lum ijtimoiy shart-sharoitlar bilan ham bog'lanmoqda.

Jinoyatchilik sabablarining ijtimoiy-biologik konsepsiyasi tarafdorlari Yu.M.Antonyan, Yu.A.Demidov, B.D.Ovchinnikov va I.S.Noy hisoblanadilar.

Ijtimoiy-psixologik konsepsiyalarning tarafdorlari jinoyatchilik sabablari bilan muayyan jinoyatning sabablari bir-biriga mos kelmaydi va ular bir xil emas, deb ko'rsatadilar.

Jinoyat obyektiv tarzda mavjud bo'lib, ijtimoiy qarama-qarshiliklar bilan shambarchas bog'liqdir; jinoyatchilik sabablari tarixan o'zgaruvchandir, tizimlidir, boshqa ijtimoiy hodisalarning sabablari bilan bog'liqdir (lekin ular bir xil emas).

Bularning barchasi yol'gon guvohlik berishning atrof muhit bilan bog'liq tashqi omillari hamda shaxsning ruxiyatida xos bo'lgan ichki omillari mavjudligi to'g'risida so'z yuritishga e'tibor beradi.

Yolg'on guvohlik berishning tashqi kriminogen omillari asosan quyidagilardan iborat:

- 1) yol'gon guvohlik berish subyektlariga manfaatdor shaxslarning har xil shaklda ta'sir ko'rsatishi;
- 2) ayblanuvchi bilan qarindoshchilik yoki boshqa yaqin munosabatlar;
- 3) ish yakunidan shaxsiy manfaatdorligi;
- 4) asosiy ish bo'yicha ayblanuvchiga xizmat yuzasidan bo'gliqlik;
- 5) yol'gon guvohlik beruvchi bilan ayblanuvchi yoki jabrlanuvchi o'rtasida adovatning mavjudligi;
- 6) jabrlanuvchi va guvohlarning g'ayriqonuniy yoki g'ayriahloqiy hulq-atvori;
- 7) yolg'on guvohlik berish subyetklarining asosiy jinoyatga aloqadorligi;
- 8) Ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga achinish, ularning aybini yengillashtirish maqsadi.

Yolg'on guvohlik berishni bevosita vujudga keltiruvchi omillarni tadqiq qilish shuni ko'rsadiki, ushbu jinoyat subyektlari asosan tergov olib borilayotgan yoki sudda ko'rilayotgan ishga daxldor bo'lganlar. Mazkur holat o'rganilgan barcha jinoyat ishlarining 30,7% ni tashkil etadi. Ayblanuvchi, jabrlanuvchi yoki ishga aloqador boshqa shaxslar bilan qarindoshchilik yoki boshqa munosabatlar

15,3%ni, ish yakunidan shaxsiy manfaatdorlik 23%ni, yolg'on guvohlik beruvchi bilan ayblanuvchi yoki jabrlanuvchi o'rtasidagi adovatning mavjudligi 7,6% ni, jabrlanuvchi va guvohning g'ayriqonuniy yoki ahloqsiz xulq-atvori (o'zgani nohaq ayblash) 15,3% ni, ayblanuvchi, sudlanuvchiga achinish, ularning aybini yengillashtirish maqsadi 7,6% ni tashkil etadi.

Aybdorning shaxsiga tegishli quyidagi kriminogen omillar aniqlandi:

- a) o'ch, qasos olish yoki o'zgacha tarzda ziyon yetkazilishidan qo'rqish 16,7%;
- b) g'arazgo'ylik 18,3%;
- c) guvohlik burchini bajarishni ishlatmaslik, bunga uyatli, shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini eyrga uradigan ish, deb qarash 6,4%;
- d) ayblanuvchining yoki uning oilasiga nisbatan hamdardlik, raxm-shafqat, achinish 41,3%;
- e) ayblanuvchidan o'ch olish 5%;

Yolg'on guvohlik berishda g'araz niyat bilan bog'liq:

- ta'magirlik;
- guvohlik beruvchining sudga va sud organlariga salbiy munosabati, tergovchiga ishonmaslik, bir-birini qo'llab-quvvatlash yoki jinoiy muhitdagi boshqacha urf-odatlar;
- ayblanuvchi yoki jabrlanuvchi bilan kasbiy birdamlik;
- milliy yoki diniy birdamlik;
- gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ga nisbatan adovat;
- ayblanuvchi, uning oilasi, ota-onasiga nisbatan hamdardlik yoki achinishni qayd etish mumkin.

Yolg'onchilik yolg'on guvohlik berishning subyektiv sabablaridan biri bo'lishi mumkinligini inkor etib bo'lmaydi. Bu taniqli psixologlar va huquqshunoslarning asarlari, shuningdek sud-tergov amaliyoti bilan isbotlangan.

Yolg'on guvohlik berishning maqsadi nisbatan bir xildir. O'rganilgan jinoyat ishlarida ayblanuvchilarni oqlash yoki ularning aybini yengillashtirish

maqsadi birinchi orinda turadi (66,6%). Toshkent shaxrida bu ko'rsatkich 62%ni, Toshkent viloyatida esa 70% ni tahsil etdi.

Ayblor tarzidai yolg'on ko'rsatuvlar ancha kam uchraydi (33,3%).

Yolg'on guvohlik berish to'g'risidagi ishlarni o'rganish jarayonida bila turib yolg'on ko'rsatuv berish to'g'risida qaror qabul qilishda xal qiluvchi rol o'ynamagan turli omillar aniqlandi.

Ko'rsatuvlarni qayd etish mexanizmi nomukammalligi, ularni olishda processual shakllarga rioya etmaslik yolg'on guvohlik berilishiga imkon beruvchi omillardan biridir.

Surioshtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari, ayrim sudyalor kasbiy malakasining, ba'zan esa-huquqiy madaniyati darajasining pastligi ham yolg'on guvohlik berilishiga sabab bo'lmoqda¹. Huquqni muxofaza qilish organlari kadrlarining qo'nimsizligi ularning kasbiy darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'pgina surishtiruvchi va tergovchilar so'roq taktikasi va metodikasiga rioya qilmaydilar, jabrlanuvchi va guvohlar psixologiyasini bilmaydilar.

Jinoyat oqibatida yetkazilgan zararning qoplanmasligi, jinoyatlarning ochilmasligi, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining jabrlanuvchiga nisbatan qo'pol, bexurmatlarcha munosabati va boshqa shunga o'xshash holatlar huquqni muhofaza qilish organiga nisbatan ishonchning yo'qolishi va yolg'on guvohlik berilishiga sabab bo'lishi mumkin².

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari jinoyatlarni ochish va jinoyatchilarni fosh etish vazifalarini bajarar ekanlar, jabrlanuvhchilarning ahvoliga mutlaqo e'tibor bermaydilar, ularga hamdardlik bildirish, zarur holda psixologik yordam ko'rsatish haqida o'ylamaydilar. Ularning jabrlanuvhciga munosabati gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilarga bo'lgan munosabatdan juda kam farq qiladi.

¹ Воробьев И.А. Защита свидетелей как одно из ключевых условий эффективной борьбы с организованной преступностью. Журнал Российского право. – 1999. - № 2. – С. 134.

² Чекулаев Д. Применение мер безопасности в отношении потерпевших и других участников процесса. Законность. – 2005. - №5. – С. 31.

Nomusga tegish, odam o'g'irlash, garov sifatida ushlab turish kabi jinoyatlardan jabr ko'rgan shaxslar ko'pincha qattiq azob-uqubatga duchor bo'ladilar, ruxan iztirob chekadilar. Jabrlanuvchilarda depressiya, tushkunlik holati rivojlanishi, jamiyatga, odamlarga ishonch, o'ziga nisbatan hurmat yo'qolishi mumkin. Shu bois jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarga yordam ko'rsatuvhchi maxsus ikkilamchi zararli ijtimoiy va psixologik oqibatlar kelib chiqishiga yo'l qo'yilmasligi kerak¹, deb qayt etadi A.A.Menshix. Bu jabrlanuvchilarning bila turib yolg'on korsatuv berishning oldini olish uchun ham muhimdir.

Yolg'on guvohlik berishga jamoatchilikning munosabati xam mazkur jinoyatga komaklashuvchi shartlardan biri hisoblanadi. Bu munosabat asosan befarqlik, loqaydlik bilan tavsiflanadi. Yolg'on guvohlik berishga jamoatchilikning bunday munosabati tergovchi va sudyaga ham tasir korsatadi. Ular yolg'on guvohlik berish holatlari bo'yicha ish qozg'atmaydilar yoki yolg'on guvohlik bergan shaxslarga nisbatan jinoyat-huquqiy ta'sir ko'rsatishning ancha yengil choralarini qo'llaydilar.

Oliy sud va O'zR Bosh prukoraturasi ham sudlarni va tergov xodimlarini yolg'on guvohlik berishga qarshi kurashga yo'naltirmaydi. Bunday jinoyatlar to'grisidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti tahlil qilinmagan va umulashtirilmagan. Vaholanki, O'z R Oliy sudi Plenumining yuqorida zikr etilgan masala yuzasidan maxsus qarorini qabul qilish fursati yetgan. Bunday qarorning qabul qilinishi bila turib yolg'on ko'rsatuv berishga qarshi kurashni faollashtirgan, bu sohada shakllangan amaliyotni yanada mustahkamlagan bo'lur edi.

2.3. Yolg'on guvohlik berishning oldini olish choralari

Kriminologiyada jinoyatchilikning oldini olishga katta e'tibor beriladi. Bu haqda o'z vaqtida Ch.Bekkaria ham aytib o'tgan edi². Kriminologiyada

¹ Меньших А.А. О возмещении ущерба жертвам преступлений во Франции. Журнал Российского права. – 1999. - №9. – С.158-159.

² Беккария Чезаре. О преступлениях и наказаниях. М. Инфра-М. – 2004. – С. 91.

jinoyatlarni oldini olish, ularni to'xtatish va profilaktika qilishning xar hil konsepciyalari ishlab chiqilgan. Jinoyatchilikning oldini olish konsepciyasiga:

- 1) profilaktika qilish (jinoyat sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish faoliyati);
- 2) ogohlantirish (jinoyat sodir etish niyatidagi shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan chora ko'rish);
- 3) to'xtatish (jinoyatni tayyorlayotgan shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan chora ko'rish) faoliyati kiradi.

P.P.Osipov o'zi ishlab chiqqan jinoyatchilikning oldini olish tizimini "jinoyatchilikka ta'sir ko'rsatish tizimi" deb nomlagan. U mazkur tizimni sosiy vazifasi jinoyatchilikning holatiga ijobiy o'zgartirishlar kiritishdan iborat bo'lgan ijtimoiy institutlar majmui deb tavsiflaydi. Ushbu tizimning unsurlari qatorida u: 1) kriminologik ogohlantirish; 2) jinoyat-sudlov faoliyati; 3) mahkumlarni mehnatga jalb qilish orqali tarbiyavi ta'sir ko'rsatishni qayd etadi.

Ta'lim-tarbiya singari umumijtimoiy chora-tadbirlar yolg'on guvohlik berishning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Bu chora-tadbirlar maxsus sarf-xarajatlarni talab etmaydi. Jinoyatchilikning oldini olishni umumiy chora-tadbirlari shaxs guvoh, jabrlanuvchi, ekspert yoki tarjimon sifatida jalb qilinishidan ancha oldin amalga oshiriladi. Shu bois bu ogohlantirishni dastlabki ogohlantirish deb atash mumkin. Dastlabki umumijtimoiy ogohlantirish chora-tadbirlari orasida, eng avvalo, insonda to'g'riso'zlikni qayd etish lozim. Bunday so'zlash va yozish, har qanday yolg'onga salbiy munosabatda bo'lish odatini insonga singdirish yolg'on guvohlik berishni oldini olish negizidir.

Fuqarolarda qonunga hurmat hissini tarbiyalash, qonunga itoatkor, yuksak huquqiy madaniyatli fuqaroni shakllantirish, adliya va huquqni muhofaza qilish organlarining obro'isni oshirish chora-tadbirlari ham umumijtimoiy xususiyatga egadir. Bu chora-tadbirlar ham yolg'on guvohlik berishning oldini olish ahamiyatiga ega.

So'nggi yillarda O'zR da sud hokimiyatini takomillashtirish va mustahkamlash chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Lekin bu hokimiyat

fuqarolar ishonchini hali to'liq qozonib ulgurgani yo'q. Sud hokimiyatiga ishonchsizlik esa yolg'on guvohlik berishga yo'l ochadi. Sud qarorlarining bajarilmasligi, sud xarajatlarini qimmatligi ayniqsa, salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sud hokimiyatini takomillashtirish, uning obro'sini oshirish bo'yicha qonun yo'li bilan hamda amaliy tartibda qabul qilinayotgan tashkiliy-chor tadbirlar odil sudlov qarshisida fuqarolik burchini vijdonan bajarishga ko'maklashishi shubhasiz.

Jinoyatchilikni maxsus oldini olish, ya'ni yolg'on guvohlik berishga izchil ta'sir ko'rsatish tizimi chora-tadbirlarining bir nechta guruxidan tashkil topadi: kriminologik, protsessual, kriminalistik, jinoyat-huquqiy chora-tadbirlar shular jumlasidandir. Bunday tasnifda muhofaza (qo'riqlash) yo'sinidagi chora-tadbirlar protsessual chora-tadbirlar bilan qamrab olinishi mumkin.

Sudlar, surishtiruv va dastlabki tergov organlari, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini qo'riqlovchi organlar yolg'on guvohlik berishni maxsus ogohlantirishning asosiy subyektari odil sudlovning to'g'ri, samarali amalga oshirilishidan manfaatdor bo'lishlari lozim.

Sudlar, surishtiruv va dastlabki tergov organlari jinoyat ishlarini tergov qilish va ko'rib chiqish jarayonida yolg'on guvohlik berishni to'g'ridan-to'g'ri profilaktika qilish uchun kata imkoniyatga ega. Masalan, dastlabki tergov bosqichidagi so'roq bilan suddagi so'roq o'rtasidagi mumkin qadar oz vaqt o'tishi yolg'on guvohlik berishning oldini olish uchun juda muhimdir. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, keyinchalik yolg'on ko'rsatuv bergan guvohlarning kata qismi - 67% tergovning dastlabki kunlarida o'tkazilgan so'roqlarida haqqoniy ko'rsatuv bergan. So'roqlar o'rtasidagi vaqt uzayishiga qarab berilgan ko'rsatuvlarni o'zgartirish holatlari ko'payib boradi. Bunda, guvohlar va jabrlanuvhchilar ko'rsatmalarining turg'unligi nuqtai nazaridan oldingi so'roq o'tkazilganidan va dastlabki tergov boshlanganidan bir oy otganidan keyin davr "krizis davri" hisoblanadi: bu davrda guvohlar va jabrlanuvchilarning 60%i o'z ko'rsatuvlarini o'zgartiradi.

Bu vaqtga kelib ish bo'yicha asosiy guvohlar aniqlanadi, ular bergan ko'rsatuvlarning ahamiyati ayon bo'ladi, jinoyat bilan bog'liq iztiroblar kamayadi,

ularning o'rnini rahm-shafqat va achinish tuyg'ulari egallaydi. Ayni vaqtda, ayblanuvchining qarindosh-urug'lari, tanish-bilishlari tomonidan ta'sir va tazyiq ham kuchayib boradi. Bunda ular har xil usullarni qo'llaydilar, xususan, achintirish uchun ko'z yoshi to'kadilar, qo'rqitadilar, pora evaziga og'dirishga harakat qiladilar va h.k.

Yuqorida zikr etilgan holatlarni bartaraf etish uchun sud ish yurituv tartibini soddalashtirish, ijtimoiy xavfi uncha kata bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sudga to'g'ridan-to'g'ri murojaat etish imkoniyatini kengaytirish zarur, deb o'ylaymiz.

Jinoyatlarning oldini olishning mxsus turi kriminologik profilaktika jinoyat sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va o'rganish hamda ularga ta'sir ko'rsatish faoliyatini qamrab oladi¹.

Yolg'on guvohlik berishga qarshi kurash mumkinligi uning genezisi va boshqa holatlarning tizimli tadqiq qilinishni yo'lga qo'yish zarurligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan davriy monitoring o'tkazishni tashkil etishni taklif qilish mumkin. Bu ish bilan O'zR Prokuraturasi barcha huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida shug'ullanish mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyatini ta'minlash maqsadida viloyatlardagi tergovchilar va sudyalarga har bir jinoyat ishi bo'yicha to'ldirish uchun maxsus so'rovnomalar taklif etish va bevosita yolg'on guvohlik berishga qarshi kurahs choralarini amaliyotda joriy qilish masalalarini o'rganish mumkin.

Kriminogen omillarni kuzatish va tahlil qilish asosida Respublikamizda yolg'on guvohlik berishning oldini olishga qaratilgan, guvohlarning xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'zda tutadigan "Guvoh" maqsadli dasturini qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yolg'on guvohlik berishni umumiy profilaktika qilish ommaviy axborot vositalaridan faol foydalanish, yolg'on guvohlik beruvchilar ustidan bo'lib o'tgan

¹ Криминология. Под ред. Н.Ф.Кузнецовой и Г.М. Миньковского М. – 1994., Криминология. Учебник. Отв.ред. И.М. Рогов, Е.А.Алауханов. Алматы. Казыгұрт. – 2006. – С. 123.

sud processlaridan lavhalar ko'rsatish kabilar yo'lga qo'yilishi lozim. Bunda yolg'on guvohlik berishning salbiy oqibatlari yorqinroq va ishonchliroq ko'rsatib berilishi zarur.

Yolg'on guvohlik berishning oldini olish dastlabki tergovdagi so'roqlar bilan suddagi so'roqlar o'rtasidagi vaqt oralig'I eng kata muammolardan biridir. Jabrlanuvhchi yoki guvoh sudda o'zini qanday tutishi mumkinligini oldindan prognoz qilish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Buning uchun huquqni muhofaza qilish organi guvoh yoki jabrlanuvchini bu vaqt oralig'idagi xulq-atvori va niyatlari to'g'risida axborotga ega bo'lishi lozim. Bunday axborotni faqat mazkur shaxslar arizasiga binoan qo'riqlash chora-tadbirlari amalga oshirilgan hollarda olish mumkin. Agar guvoh yoki jabrlanuvchi manfaatdor shaxslar ta'sirida bila turib yolg'on ko'rsatuv berishga tayyorlanayotgani haqida haqqoniy ma'lumotlar bo'lsa, bu haqda tergovni o'tkazgan tergovchiga, ish yuborilgan sud raisiga va prokurorga xabar berish kerak. Tergovchiga yolg'on guvohlik berish niyatida bo'lgan shaxsning barcha o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida gapirib berishni tavsiya etish mumkin deb o'ylaymiz.

Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligini oshirishda jabrlanuvchilar va guvohlar xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Chunki, I.Ismailov keltirgan ma'lumotlarga ko'ra uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilayotgan bosqinchilikning 70-80%, talonchilikning 65-70%, tovlamachilikning 30-40%, firibgarlikning 20-25%, o'zlashitirish va rastrataning 5-10%, o'g'rilikning 40-50% aniqlanib, qayd etilgan¹. Bunda albatta, jabrlanuvhchilar va guvohlarning xavfsizligi qonun yo'li bilan yetarlicha muxofaza qilinmaganligi ham mazkur jinoyatlarning ochilmasligi omillaridan biridir.

Shu sababli ham surishtiruv, dastlabki tergov organlari va sudlar jabrlanuvchilar, guvohlar va processing boshqa ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash, ularga nisbatan turli ta'sirlar o'tkazilishining oldini olish masalasiga jiddiy e'tibor qaratishlari kerak.

¹ Исмаилов И. Жиноятчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт муаммолари. – Т. – 2005. - 140 б.

2.4. Yolg'on guvohlik berishni oldini olishning jinoyat-huquqiy va jinoyat-processual choralari

Yolg'on guvohlik berishning eng samarali choralari vositalari bu jinoyat-huquqiy va jinoyat-processual choralar hisoblanadi.

Yolg'on guvohlik berishga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy choralari ichida mazkur qilmishlar uchun jinoiy jazolarning qo'llanilishi samaradorligini ta'minlash muhim o'rin tutadi.

Amaldagi JKda oddiy yolg'on guvohlik berish uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilanmagan, lekin olti oygacha qamoq jazosi joriy etildiki, bu jazo o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra ozodlikdan mahrum qilishdan ham og'irroqdir¹.

JK 238-moddasi 1-qismida yolg'on guvohlik berish uchun muqobil tarzda quyidagi jazolar nazarda tutiladi:

- 1) eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima;
- 2) ikki yilgacha ahloq tuzatish ishlari;
- 3) olti oygacha qamoq.

Yolg'on guvohlik berishga takroirlik xos emas, chunki bir odam o'z hayotida bir necha marta jinoyatning guvohi bo'lishi kam uchraydi. Yolg'on guvohlik berish uchun jazoga tortish ko'proq umumiy prevensiya, ya'ni boshqa shaxslar tomonidan yolg'on guvohlik berish holatlarining oldini olish uchun zarur. Lekin belgilangan jazolarning yengilligi va amalda kam qo'llanilishi yolg'on guvohlik berish uchun jazoning umumiy oldini olishga qaratilgan ta'sirini kuchayitradi.

Ayni vaqtda, amaldagi JKda og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilgan yolg'on guvohlik berish uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosi saqlab qolindi, lekin uning muddati kamaytirildi. JK 238-moddasining ikkinchi qismida jazo

¹ Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқида жазо тайинлашнинг умумий асослари. Т. Адолат. – 2001.

chorasi sifatida ikki yildan uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilandi.

Ayrim huquqshunoslar yolg'on guvohlik berish uchun jinoiy javobgarlikning haddan tashqari yengilligi mazkur jinoyatlarga qarshi kurash samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaydilar¹.

Ba'zi xorijiy mamlakatlarda yolg'on guvohlik berishga nisbatan qattiq jazo choralari ko'zda tutulgan. Masalan, Norvegiyada har qanday hokimiyat organiga berilgan yolg'on guvohlik uchun jarima yoki ikki yilgacha qamoq jazosi, sudda qasamyod qilganidan keyin berilgan yolg'on guvohlik uchun esa 5 yilgacha qamoq (JK 163,166 paragraflari) jazosi qo'llanishi mumkin.

Agarda yolg'on guvohlik aybsiz shaxsni jinoyat sodir etishda ayblab sodir etilgan bo'lsa, olti oydan sakkiz yilgacha qamoq jazosi qo'llanilishi mumkin. Yol'gondan ayblangan shaxs ozodlikdan mahrum qilish taridagi jazoga hukm qilinib jazoni qisman yoki to'liq o'tagan bo'lsa, yohud o'lim jaosiga hukm qilingan bo'lsa, yolg'on guvohlik bergan shaxs bir yildan kam bo'lmagan muddatga qamoq jazosiga tortilishi mumkin.

Ayni vaqtda biz yolg'on guvohlik berish uchun jazoni kuchaytirish tarafdorimiz, ammo o'gir oqibatlarga olib keladigan yolg'on guvohlik berish (ayblangan shaxsga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoning tayinlanishi, yol'gon ayblov asosida jazoga tortilgan shaxsning sog'lig'i buzilishi va h.k) hollarida o'girroq jazo chorasi Jk 238-moddasi 3-qismida aks ettirilishi kerak deb hisoblaymiz.

Jinoyat processual choralar. Yol'gon guvohlik berish aynan surshtiruv, dastlabki tergov olib borishda yoki sudda ishlarni ko'rish jarayonida sodir qilinar ekan, uning sabablarini, unga qarshi kurash va oldini olish choralarini to'g'ri belgilash samaradorligini oshirishda yolg'on guvohlik berish subyektlari bo'lgan

¹ Горелик А., Лобанова В.Л. Преступления против правосудия. СПб, - 2005. – С. 303.

guvoh, jabrlanuvhchi, ekspert va sodir etilishini oldini olishga qaratilgan processual vositalarni tadqiq etish lozim bo'ladi¹.

O'zR JPK da yolg'on guvohlik berish jinoyatlarini oldini olishga qaratilgan normalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni mazmuniga ko'ra, ta'qiqlovchi, guvohlik berish subyektlariga tasir o'tkaizhsning oldini olishga qaratilgan va rag'batlantiruvchi normalar bo'lishi mumkin.

Yolg'on guvohlik berishni ta'qiqlovchi normalar JPKning 55-, 66-, 72-, 117-217- va 441-moddalarini kiritish mumkin. JPKning 55-moddasi ikkinchi va to'rtinchi qismlarida jabrlanuvchining bila turib yolg'on ko'rsatuv berganligi uchun; 66-moddasi ikkinchi va va to'rtinchi qismlarida guvohning bila turib yolg'on ko'rsatuv berganligi uchun; 68-moddasi to'rtinchi qismida ekspertning bila turib yolg'on xulosa berganligi uchun; 72-moddasi uchinchi qismida tarjimonning bila turib yolg'on tarjima qilganligi uchun javobgarligi belgilangan.

Yuqorida ko'rsatilgan normalarda jinoyat processu ishtirokchilarini yolg'on guvohlik berishini oldini olish maqsadida ularni javobgarlikka tortilishlari mumkinligi bilan ogohlantiradi.

Ko'pincha yolg'on guvohlik berish qarindosh-urug'chilik munosabati bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli JPK 116-moddasida gumon qilinuvhchi, ayblanuvhchi, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari gumon qilinuvhciga, ayblanuvchiga taalluqli holatlar haqida guvoh va jabrlanuvhchi tariqasida faqat o'zlarining roziligi bilan so'roq qilinishlari mumkinligi belgilangan. So'roq berganlarida esa, ular ham yolg'on guvohlik berganlik uchun javobgarlik to'g'risida ogohlantiriladilar.

JPK 121-moddasida voyaga yetmagan guvoh va jabrlanuvchilarni so'roq qilishning o'ziga xos jihatlari hisobga olinib, 16 yoshga to'lmagan guvoh yoki jabrlanuvchini so'roq qilish ularning qonuniy vakili yoki kata yoshdagi qarindoshi, pedagog yoki jabrlanuvchining vakili ishtirokida ularning roziligi bilan o'tkazilishi belgilangan.

¹ Кузьмина С.С. Лжесвидительство. Уголовно-правовые и уголовно-процессуальные проблемы. – М. – 1995. – С. 10-11.

Guvohlik berish subyektlariga ta'sir o'tkazishning oldini olishga qaratilgan normalar deganda guvohlik berish subyektlariga ish bo'yicha haqiqatni so'zlamaslik, faktlarni yashirish maqsadida tazyiq o'tkazilishini oldini olishga qaratilgan normalarni kiritishimiz mumkin. Bunday normalarga JPK 170-moddasi va 270-moddalari misol bo'la oladi. Guvoh va jabrlanuvhchilarning tergov harakatlarini o'tkazish vaqtida bergan ko'rsatuvlari haqida ma'lumotlarni sir saqlanishi ham ular xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. JPKning 375-moddasida ushbu masala o'z yechimini topgan. JPKning 270-moddasida jabrlanuvhchi, guvoh yoki ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga, shuningdek, ularning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlariga o'ldirish, kuch ishlatish, mol-mulkni yo'q qilib tashlash yohud mol-mulkiga shikast yetkazish bilan yoki g'ayrihuquqiy hatti-xarakatlar bilan tahdid qilinayotir deyish uchun yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud bu shaxslarning hayoti, salomatligi, sha'ni, qadr-qimmati va mol-mulkini muhofaza qilish, shuningdek aybdorlarni aniqlash va javobgarlikka tortish choralarini ko'rishlari kerakligi belgilangan.

Jinoyatlarning oldini olish, ularni fosh etishda ko'rsatuv berishni rag'batlantiruvchi normalarning ham o'рни bor. Rag'batlantiruvchi normalar deganda ixtiyoriy haqqoiniy guvohlik berishni ta'minlash, guvohlik berish subyektlariga sarf qilingan xarajatlarini qoplash va boshqacha tarzda guvohlik bergan shaxslarni rag'batlantirishga qaratilgan normalar tushiniladi.

JPK 318-moddasida: jabrlanuvhchilarga va ularning vakillariga, guvohlarga, ekspertlarga, tarjimonlarga ularning processual harakatlar o'tkaziladigan joyga kelib ketish, turar joyni ijaraga olish xarajatlarini qoplash uchun; shuningdek sutkalik xarajat puli uchun; doimiy ish haqi olmaydigan jabrlanuvchilarga va ularning vakillariga, guvohlarga, ularning odatdagi mashg'ulotlaridan chalg'itganlik uchun hamda ekspertlarga, tarjimonlarga surishtiruv, dastlabi tergov yoki sudda o'z vazifalarini bajarganligi uchun pul mablag'larini to'lanishi belgilangan. Bu xarajatlarni to'lash surishtiruvchi, tergovchi, prokuror qarori yoki sudning ajrimi bilan byudjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ushbu kodeksning 522-moddasida jabrlanuvchi yoki guvohning bila turib yolg'on ko'rsatuv yohud ekspertning bila turib yolg'on xulosa berganligi, shuningdek, ashyoviy dalillar, tergov hamda sud harakatlari bayonnomalari va boshqa xujjatlar soxta ekanligini bila turib yolg'on tarjima qilinganligi qonunga xilof va asossiz hukm yoki ajrim (qaror) chiqarilishiga sabab bo'lganligi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlansa, jinoyat ishi yangidan ochilgan holatlar munosabati bilan qaytadan ko'rilishi ko'zda tutilgan.

Fikrimizcha, yolg'on guvohlikni oldini olishda JPKning rag'batlantiruvchi normalarini yanada kengaytirish, ularni amalda kengroq qo'llanilishiga erishish zarur, chunki jazolab jinoyat sodir etilishining oldini olishdan ko'ra, ishontirib, rag'batlantirib jinoyat sodir etishning oldini olish ko'proq tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Ammo, yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalar hozirgi zamon talabiga javob bermaydi va ushbu qoidalarni yanada takomillashtirish zarur.

Xorijiy, ayniqsa rivojlangan g'arb mamlakatlari jinoyat processida jabrlanuvchilar va guvohlar xavfsizligini ta'minlashga oid bir qancha huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu mexanizmlardan uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda samarali tarzda foydalanilmoqda¹. Ayrim MDH mamlakatlarida xam ushbu masalaga jiddiy yondashilmoqda. Jumladan, Rossiya Federatsiyasida jabrlanuvchilar, guvohlar va jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovning boshqa ishtirokchilarini davlat tomonidan ximoya qilishga oid qonunning qabul qilinganligi² yoki Qozog'iston Respublikasida guvohlarni himoya qilish dasturining qabul qilinganligi bunga misol bo'la oladi.

Respublikamizda ham jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirish maqsadida jabrlanuvchilar va guvohlar xavfsizligini taminlashga oid maxsus

¹ Исмаилов Б.И. Теоретические аспекты совершенствования законодательных основ защите потерпевших, свидетелей и иных участников уголовного судопроизводства. Суд-хукук ислохотлари: хозирги ҳолати ва такомиллаштириш истикболлари. Илмий – амалий конференция материаллари. ТДЮИ. – 2007. – Б.113-114.

² Федеральный закон от 20 августа 2004 г. «О государственной защите потерпевших, свидетелей и иных участников уголовного судопроизводства». СЗ РФ. – 2004. - №34. – С. 3534.

qonun yoki dasturning ishlab chiqilishi zarur, deb hisoblaymiz. Bunda xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kanadada guvohlarni himoya qilish dasturi to'g'risidagi qonun mavjud bo'lib, unda guvohlarni himoya qilishning: yashash joyini o'zgartirish, vaqtinchalik xavfsiz joyga joylashtirish, shaxsiy xujjatlarni almashtirish, maslahat berish, pul bilan ta'minlash kabi choralar ko'zda tutulgan.

Fransiyada esa, guvohlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida surishtiruv bosqichida "anonym ko'rsatuvlar"dan foydalanish tartibi ham qo'llaniladi. Bunda, ko'rsatuv bergan shaxsga oid ma'lumotlar so'roq bayonnomasida ko'rsatilmaydi va unda ushbu ko'rsatuvlar "ishonchga sazovor, ammo o'zining kimligini maxfiy saqlashni xohlagan shaxs" tomonidan olinganligi haqida belgi qo'yiladi¹.

Albatta, bunday qoidalarni respublikamiz sud-tergov amaliyotida to'g'ridan-to'g'ri qo'llab bo'lmaydi. Shu sababli ham process ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlashga oid choralarni: 1) processual choralar; 2) davlat tomonidan amalga oshiriladigan himoya choralariga bo'lish zarur bo'ladi. Processual choralarga O'zR JPKda belgilangan, ya'ni o'z holatiga ko'ra processual harakatlar hisoblangan choralar (telefon orqali so'zlashuvlarni eshitish, tanib olish uchun ko'rsatish, ishni yopiq sud majlisida ko'rish, dastlabki tergov materiallari bilan tanishish) kiradi.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan himoya choralari esa jabrlanuvchilar, guvohlar, xolilar, ularning yaqinlarini qo'riqlash, ularga oid ma'lumotlarni sir saqlanishini ta'minlash, jinoiy guruhlar, uyushmalarga qarshi guvohlik bergan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish kabi choralarni kiritish mumkin.

Hozirda ko'p davlatlarda guvohlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida sudda uning o'zi qatnashmasdan audio va videotexnikalardan foydalanib (anonym guvoh) ko'rsatuvlar olish masalasini kengroq joriy qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Ammo, guvohning bevosita sudda qatnashmasligi va sudlanuvchi, ximoyachilarning uning kimligini bilmasligi va unga savollar bera olmasligi

¹ Григорьев Ф.Г. Право свидетеля и других участников уголовного судопроизводства на обеспечение их безопасности. Вестник Московского Университета. Серия 11. Право. - №3. – 2006. – С. 94.

xalqaro huquq normalariga (Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Pakt) to'g'ri kelish yoki kelmasligi haqida turli qarashlar mavjud. Xalqaro sud amaliyoti ham bunga bir xilda javob bera olmaydi. Masalan, inson huquqlari bo'yicha Evropa sudi 1989-yil 20-noyabrdagi qarorida sudning ayblanuvchi K.ga nisbatan ayblov hukmi so'roq qilinmasdan ko'rsatuvlari tanishtirilgan ikkita "anonym" guvoh ko'rsatuvlariga asoslanganligini hamda sudyalarning guvohlarni o'z ko'zlari bilan ko'rmaganligi va ularning shaxsi haqida tasavvurga ega bo'la olmaganliklari sababli, ayblanuvchining huquqi buzilgan, deb topgan¹.

Boshqa bir ish bo'yicha esa, Evropa inson huquqlari bo'yicha sudi guvohlarning bevosita sudda so'roq qilinishi shart emasligini ko'rsatib, "ayblanuvchi va himoyachi tomonidan savollar bevosita sudda so'roq qilish yo'li bilan berilishi shart emas. Audio yoki video yuvlarni namoyish qilish yohud so'roq bayonnomasini o'qib eshittirish guvohning ko'rsatuvlarini rad qilish va uning to'g'riligini gumon ostiga qo'yish uchun yetarli" deb hisoblaydi.

Ammo, sudda taraflar manfaatlari orasidagi tenglikni ta'minlash maqsadida "anonim guvoh" larning so'roq bayonnomasini o'qib eshittirish bilan cheklanmasdan, ularni sudda texnik vositalardan foydalanib so'roq qilish masalasiga ko'proq e'tibor qaratilishi kerak. L.Brusnicin bunda, savolga javob so'roq qilinuvchining shaxsi ma'lum bo'lishiga olib keladigan bo'lsa uning ko'rsatuvi to'liq yoki qisman tanishtirilmaydi, videotranslyatsiyadan foydalanib so'roq qilishda so'roq qilinayotganning shaxsiga oid savollar rad qilinishi kerak deb hisoblaydi².

Albatta, Evropa sudining "anonym guvohlik"ka doir qarorlaridan to'g'ridan-to'g'ri bizning qonunni qo'llash amaliyotimizda qo'llab bo'lmaydi, lekin undagi ijobiy tajribalar o'rganilib, mamlakatimiz Oliy sudi tominidan guvohlarni processual himoya qilish choralarini qo'llashga doir tushuntirishlar berilishi mumkin.

¹ Гомьен Д., Харрис Д., Зваак Л. Европейская Конвенция о правах человека и Европейская Социальная Хартия. М., 1998. – С. 254.

² Бруницын Л. Псевдонимы в уголовном процессе. Законность. – №2. – 2005. – С. 16.

II - bob bo'yicha xulosa

Yolg'on guvohlik berishning kriminologik tavsifi qilmishning ijtimoiy xavfliligi, uning odil sudlov uchun xavfliligi va mazkur jinoyatni sodir etuvchi shaxslarning xususiyatlari o'rtasida jiddiy farq mavjudligini ko'rsatadi.

Yolg'on guvohlik berishning tashqi kriminogen omillari asosan quyidagilardan iborat:

- 1) yolg'on guvohlik berish subyektlariga manfaatdor shaxslarning har xil shaklda ta'sir ko'rsatishi;
- 2) ayblanuvchi bilan qarindoshchilik yoki boshqa yaqin munosabatlar;
- 3) ish yakunidan shaxsiy manfaatdorligi;
- 4) asosiy ish bo'yicha ayblanuvchiga xizmat yuzasidan bo'g'liqlik;
- 5) yolg'on guvohlik beruvchi bilan ayblanuvchi yoki jabrlanuvchi o'rtasida adovatning mavjudligi;
- 6) jabrlanuvchi va guvohlarning g'ayriqonuniy yoki g'ayriahloqiy hulq-atvori;
- 7) yolg'on guvohlik berish subyetklarining asosiy jinoyatga aloqadorligi;
- 8) Ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga achinish, ularning aybini yengillashtirish maqsadi.

Yolg'on guvohlik berishni umumiy profilaktika qilish ommaviy axborot vositalaridan faol foydalanish, yolg'on guvohlik beruvchilar ustidan bo'lib o'tgan sud processlaridan lavhalar ko'rsatish kabilar yo'lga qo'yilishi lozim. Bunda yolg'on guvohlik berishning salbiy oqibatlari yorqinroq va ishonchliroq ko'rsatib berilishi zarur.

Yolg'on guvohlik berishga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy choralari ichida mazkur qilmishlar uchun jinoiy jazolarning qo'llanilishi samaradorligini ta'minlash muhim o'rin tutadi.

X U L O S A

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra yolg'on guvohlik berishning kriminologik jihatlariga bilan bog'liq muammolar tahlil qilinib, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Yolg'on ko'rsatuvlar mazmunini yolg'on tashkil etadi. Yolg'on deyilganda, subektning ongidagi obektiv haqiqatga zid bo'lgan tushunchani tasdiqlashi, yohud fikr bildirishi, yani ongli ravishda xato malumot berish tushuniladi. Biroq har qanday yolg'on ham yolg'on guvohlik berish jinoyati tarkibini hosil qilmaydi. Faqatgina alohida ish bo'yicha ahamiyatga ega bo'lgan holatlar yuzasidan sud-tergov organlariga aytilgan yolg'on, yani isbotlanishi lozim bo'lgan xolatlarga hamda qonunda dalil sifatida foydalanish taqiqlanmagan faktlarga taalluqli bo'lgan yolg'ongina ushbu jinoyat tarkibini hosil qiladi.

2. Yolg'on guvohlik berishning obektini belgilashda bevosita O'zR JK 238-moddasi dispozitsiyasidan kelib chiqish lozim, ushbu moddaning 1-qismi bo'yicha obekt bu - odil sudlov (sud) va uni amalga oshirishga ko'maklashuvchi (prokuratura, dastlabki tergov va surishtiruv) organlarning normal faoliyati bo'lsa, 2-qismi bo'yicha obekt bu - jabrlanuvchi, guvoh, ekspert, tarjimon, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari (JK 8-bo'limiga muvofiq: qarindoshlar yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, yani ota-ona, aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, nevaralar shuningdek er-xotinning ota-onasi, aka-uka va opa-singillari)ning sog'lig'i hisoblanadi.

3. Yolg'on guvohlik berish "formal" tarkibli jinoyatlar sirasiga kiradi, yani ularni kvalifikatsiya qilishda zararli oqibatlarning ro'y berganligi talab qilinmaydi. U yoki bu jinoyat tarkibining "formal" shakli jinoyatning ijtimoiy xavfliligi darajasiga baho berishga hech qanday tasir ko'rsatmaydi.

O'zR JK 238-moddasi birinchi qismida faqat guvohlar, jabrlanuvchilar, ekspertlar va tarjimonlar yolg'on guvohlik berish jinoyatining subektlari bo'lishi mumkinligi belgilab ko'yilgan. Jinoyat va fuqarolik protsesslarida guvoh, jabrlanuvchi, ekspert yoki tarjimon sifatida ishtirok etmaydigan boshqa shaxslar

mazkur moddaga binoan bajaruvchi sifatida javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

Binobarin, bu shaxslar JK 238-moddasi birinchi qismida javobgarlik belgilangan jinoyatning maxsus subektlari hisoblanadi va shu bois, ular umumiy alomatlar (16 yoshga to'lgan akli raso jismoniy shaxslar)dan tashqari, o'z kasbiy faoliyatining turiga mos keluvchi maxsus alomatlarga ega bo'lishi talab qilinadi. Bu alomatlar jinoyat-protsessual va fuqarolik-protsessual qonun hujjatlarida ochib berilgan.

Guvoh - yolg'on guvohlik berish jinoyatining asosiy subektlaridan biri bo'lib, O'zR JPK 65-moddasiga muvofiq, guvoh - jinoyat ishi bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan biror holat yuzasidan ko'rsatuv berish uchun chaqirilgan shaxs. Ammo mazkur tarif guvohning yolg'on guvohlik berish subekti sifatidagi bir qancha muhim, yani guvohlarni bila turib yolg'on ko'rsatuv berish subekti hisoblanmagan shaxslardan farqlash imkonini beruvchi alomatlarini o'zida aks ettirmaydi.

4. Yolg'on guvohlik berishning subektiv tomoni, umuman olganda, to'g'ri qasd shaklidagi ayb bilan tavsiflanadi. Uning mazmuniga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Bila turib yolg'on ko'rsatuv berishga to'g'ri qasd qilishning mazmuniga shaxsning quyidagi holatlar: 1) o'zi berayotgan malumotlarning yolg'onligini; 2) tergov qilinayotgan yoki ko'rib chiqilayotgan ish uchun ularning ahamiyatini; 3) jinoyat holatini, yani qilmishning vakolatli organlar oldida sodir etilayotganini; 4) shaxsni maxsus subekt sifatida tavsiflovchi alomatlarni tushunishi kiradi. Shu bois shaxsning aybini aniqlash uchun u yuqorida zikr etilgan barcha holatlarni tushunganligi aniqlanishi zarur.

5. Jinoyatchilik, ayniqsa uning uyushgan turlariga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda protsess ishtirokchilari xavfsizligini taminlash muhim o'rin tutadi, bu yolg'on guvohlik berishning xususiyatlari va unga turtki beruvchi sabablarni baholashda ham namoyon bo'ladi.

6. Yolg'on guvohlik berishning asosiy determinantlariga protsess ishtirokchilari o'rtasidagi qarindoshlik yoki boshqa yaqin mnosabatlar, ish yakunidan manfaatdorlik, manfaatdor shaxs tomonidan tasir ko'rsatilishi

ehtimolidan qo'rqish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish organlariga nisbatan ishonchsizligi, protsess ishtirokchilari xavfsizligini taminlashga qaratilgan protsessual normalarga amaliyotda etibor berilmayotganligi kabilar kiradi.

7. Yolg'on guvohlik berishning oldini olishda har bir shaxsda jinoyatlarga qarshi kurash borasidagi fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu sohadagi faoliyatni yo'naltirish uchun maxsus uslubiy qo'llanmalar, yo'l-yo'riq va tavsiyanomalar zarur. Bu nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki jamoatchilik va olimlar oldida turgan muhim vazifasidir.

8. Yolg'on guvohlik berishning oldini olishda aholi o'rtasida tarbiyaviy, o'quv xususiyatidagi umumijtimoiy choralarni ko'rish, guvohlik majburiyatini xolisona bajarganlik uchun moddiy va manaviy rag'batlantirish kabi tadbirlarni qo'llash, tergov va sud muhokamasida so'roq qilishning samarali psixologik uslublaridan, shuningdek, zamonoviy texnika vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

9. Yolg'on guvohlik uchun javobgarlikni qo'llashda guvohlik immunitetiga alohida etibor qaratilishi lozim. Chunki, shaxsning o'ziga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi to'g'risidagi qoidani amalga oshirmasdan turib jinoyat protsessida fuqarolarning himoyalalanish huqukiga egaligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy printsipti ro'yobga chiqarish ham mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

I. Rahbariy adabiyotlar:

1.1. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. - Т., Ўзбекистон. - 2002. - 429 б.

1.2. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. - Т.5. Т.: Ўзбекистон. – 2005. – 445 б.

1.3. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2010. – Б. 8.

1.4. Каримов И.А. Ўзбекистон дунё харитасида ўзига муносиб жой олди. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Т.: Ўзбекистон. НМИУ. – 2011. – 435 б.

1.5. Каримов И.А. Инсон манфаати, ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, ҳаётимизнинг янада эркин ва обод бўлишига эришиш – бизнинг бош мақсадимиздир. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 20 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма. – Тошкент.: Ўқитувчи. – 2013. – Б. 10-15.

1.6. Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. Ҳуқуқ ва бурч. – 2015. - №1. – Б. 2-9.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

2.1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ, Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган. – Т.: «Ўзбекистон». – 2014. – Б.40.

2.2. Всеобщая декларация прав человека // В.кн. Международные Конвенции по защите прав человека и борьбы с преступностью: (Сб. междунар. документов) Сост. Ю.С.Пуллатов. -Т.; Шарқ. 1995. - 448 с.

2.3. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. Расмий нашр -Т., Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. 2014. - 384 б.

2.4. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят процессуал кодекси. Расмий нашр-Т.. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. 2015.

2.5. Закон Республики Узбекистан "О порядке и размерах возмещения свидетелям, потерпевшим, экспертам, специалистам, переводчикам и понятым понесенных расходов". № 661-ХП от 3 июля 1992 года.

2.6. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорларининг тўплами. 1991-1997. Икки жилдди. I жилд. Т., Шарқ. 1997.

III. Asosiy adabiyotlar

3.1. Абдурасулова Қ.Р. Жиноятнинг махсус субъекти. Ўқув қўлланма. –ТДЮИ - 2005. - 124 б.

3.2. Абдурасулова Қ.Р., Зокирова О. Криминология. Ўқув қўлланма. ТДЮИ. – 2004. – 145 б.

3.3. Абдурасулова Қ.Р., Ниёзова С. Жиноятчилик ва жиноятчи шахси муаммолари. Ўқув қўлланма. ТДЮИ. - 2006. – Б. 86.

3.4. Абдурасулова Қ.Р., Зокирова О. Криминология. Т: ТДЮИ. – 2003. – 77б.

3.5. Александров А.И. Уголовная политика и уголовный процесс в российской государственности. СПб. - 2003. – 397 с.

3.6. Алимова Р., Отахўжаев С. Суд экспертизасини ташкил қилиш ва ўтказиш масалалари. Т., "Янги аср авлоди" 2001.

3.7. Алоуов Е.О. Квалификация хищений совершенных по подложным документам. - Т., Адолат. - 1994. – 196 с.

3.8. Бакунов П. Айб жиноят субъектив томонининг зарурий белгиси сифатида. Т. «Адолат». - 2006. – 99 б.

3.9. Бедняков Д.И. Непроцессуальная информация и расследование преступлений. М. - 1991. -205 с

- 3.10. Гаухман Л.Д. Квалификация преступлений: закон, теория, практика. М.: Юринформ. - 2001. - 315 с.
- 3.11. Горелик А.С., Лобанова В.Л. Преступления против правосудия. СПб. - 2005. - 303 с.
- 3.12. Гулямов З.Х. Преступления против правосудия. Т., Академия МВД РУз. - 1997. - 236 с.
- 3.13. Гулямов З.Х. Уголовная ответственности за несообщение о преступлении или его укрывательство. Учебное пособие. -Т.: Академия МВД Республики Узбекистан. - 1997. -5,2 п.л.
- 3.14. Джалолов Д.Д., Бахриев И.И., Жуманиёзов Э.Х., Хакбердиева Р.Т. Суд-тиббий экспертиза объектларини текширишда экспертнинг ҳуқуқий асослари. Т., ЎзМУ. 2004.
- 3.15. Жиноят ҳуқуқи: Умумий қисм // Масъул муҳаррир М.Усмоналиев. -Т., Адолат. - 1998. -287 с.
- 3.16. Зуфаров Р.А. Порахўрлик учун жиноий жавобгарлик. Т, 2004. - 220 б.
- 3.17. Иномжонов Ш.Х. Жиноят процессида далилларни тақдим қилиш ва улардан фойдаланиш муаммолари. (Монография 2-нашр). -Т.: ТДЮИ. - 2006. - 179 б.
- 3.18. Каракетов Ю., Усмоналиев М. Жиноятчиликка қарши курашнинг криминалогик чоралари. Т., "Ўзбекистан". 1994.
- 3.19. Криминалогия. Учебник. Отв. ред. И.М.Рогов., Е.О.Алауханов. Алматы. Казығурт. - 2007. - С 584.
- 3.20. Тошпўлатов А. Ёлғон гувоҳликнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминалогик жиҳатлари. Тошкент. – 2009. – 152 б.
- 3.21. Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят ҳуқуқи курси. 4-том. Т.: Илм-зиё. – 2011.

IV. Internet saytlari:

1. [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. [http:// www.edu.uz](http://www.edu.uz)
3. [http:// www.pravo.vsem.uz](http://www.pravo.vsem.uz)
4. [http:// www.kodeks.uz](http://www.kodeks.uz)